

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**  
**MUSIQA TA'LIMI VA TASVIRIY SAN'AT KAFEDRASI**



# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Innovatsion texnologiyalarni qo'llab darsdan tashqari olib  
boriladigan ishlar senariysini tuzish”**

**Xidirova Nargis Ibrohim qizi**

**5111100- Musiqa ta'lim yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun**

**Ilmiy rahbar:**

**Zoirov Z.**

**TERMIZ-2017**

**Mavzu: “Innovatsion texnologiyalarni qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariylarini tuzish” mavzusidagi**

**bitiruv malakaviy ishi**

**Reja:**

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I- bob. Innovatsion texnologiyalarini qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmuni .....</b>	<b>6</b>
<b>1.1. O'quvchilar darsdan tashqari olib boriladigan ishlar pedagogik muammo sifatida.....</b>	<b>6</b>
<b>1.2. Maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni.....</b>	<b>16</b>
<b>1.3. Maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliyotdagi ahvoli .....</b>	<b>27</b>
<b>II- 6o6. Maktabda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariylarini tuzish .....</b>	<b>33</b>
<b>2.1. Maktablarda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar jarayonini takomillashtirish.....</b>	<b>33</b>
<b>2.2. Innovatsion texnologiyalarini qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariylaridan namunalar.....</b>	<b>47</b>
<b>Xulosa .....</b>	<b>67</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati .....</b>	<b>69</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizning istiqboli ko'p jihatdan barkamol intellektual salohiyatli avlodni shakllantirish va unga mos ta'lim–tarbiya olib borishga bog'liq va bunga mustaqil Respublikamizdagi ijtimoiy–tarixiy taraqqiyotning tezkor sur'atlar bilan rivojlanishi, fan–texnika va texnologiyalar sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning ta'lim–tarbiya sohasiga keng joriy etilishi asos bo'lmoqda. Bu asoslar o'z Vatanini va xalqini sevadigan, milliy mafkuramizga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirishdek muammo echimini hal etishni ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri darajasigacha ko'tardi. Bu boradagi ishlarning ahamiyatligini 1-Prezidentimiz I.A Karimov. quyidagicha ta'kidlagan edi: **«Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq–atfori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz»**. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va ta'limni isloh qilish borasidagi boshqa me'yoriy hujjatlarida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va shu asosda intellektual salohiyatli ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muhim masalalardan ekanligi ta'kidlangan. Ayniqsa, bu borada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti» ekanligi asoslangan.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish fan–texnika va texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim–tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andozalari talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Bunda «XXI asr – intellektual asr»ning, ya'ni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini

tarbiyalash eng muhim dolzarb muammolardan biri bo'lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi intellekt va bilimlar ro'yobga chiqariladi hamda iste'molda ulardan foydalaniladi. Ushbu muammo echimini hal etishda o'qituvchi nafaqat ta'lim jarayoni, balki o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatlarini zamon talablariga mos holda tashkil etishga intilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ilmiy izlanishlarimiz natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiq va eng asosiysi milliy g'ururga ega bo'lgan ilmiy dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatli o'qituvchilarni tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biri ekan.

Ushbu zaruriyatdan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini « **Innovatsion texnologiyalarini qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish.** » deb atadik.

Bitiruv malakaviy ishimiz **maqsadi** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga innovasion yondashuvga tayyorlash yo'llarini shilab chiqishdan iborat.

Tadqiqotimiz **ob'ekti** maktablardagi Innovatsion texnologiyalarini qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish ishlarni tashkil etish jrayonidir.

Bitiruv malakaviy ishimiz **predmetini** maktablarda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish ishlarni tashkil etishning samarali shakl, yo'l va usullari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishga harakat qildik:

O'quvchilar darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish mazmunini o'rganish.

Maktablarda tashkil etiladigan darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish ishlarni tahlil qilish.

Zamon talablariga javob beradigan ma'naviyat xonalarini tashkil etish.

Maktablarda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish tadbirlarni tashkil etishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimiz **farazini** quyidagicha belgiladik: maktablarda tashkil etiladigan darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish ishlari samaradorligini oshirish mumkin, agarda,

tashkil etiladigan darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish ishlari aniq rejalashtirilsa;

o'qituvchilar zaruriy metodik bilimlar bilan qurollantirilsa;

darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va imkoniyatlariga mos tarzda tashkil etiladigan bo'lsa.

Bitiruv malakaviy ishimiz **nazariy ahamiyati** shundaki, tadqiqot davomida o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar ga doir adabiyotlar nazariy jihatdan tahlil qiqlindi.

Tadqiqotimizning **amaliy ahamiyati** izlanishlarimiz davomida maktablarda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ssenariyalarini tuzish ishlarni tashkil etishga doir ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishimiz **metodologik asosini** shaxs ma'naviy tarbiyasiga doir pedagogik qarashlar va Prezident asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida suhbat, qiyosiy tahlil, anketa va kuzatish kabi **ilmiy tadqiqot metodlaridan** foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-bob. Innovatsion texnologiyalarini qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmuni**

### **1.1. O'quvchilar darsdan tashqari olib boriladigan ishlar pedagogic muammo sifatida.**

Ongli inson paydo bo'libdiki, fikr, g'oya, qarash, mafkura, ta'limotlar shakllanib, ular asosida ilm, fan, texnika, texnologiya, ta'lim, tarbiya tadrijiy (evolyutsion) tarzda rivojlanib kelmoqda va takomillashib boraveradi.

Bizga ma'lumki, tarbiya masalasi bilan ulug' bobokalonlarimiz doimo shug'ullanib kelgan. Ular Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Imom Al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib va hokazolar. Bu borada Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», «Fazilat, baxt va kamolat haqida» va shu kabi asarlari bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ham nihoyatda ibratlidir. Qayd etilgan asarlarning asosiy mazmunini tarbiya vositalari, shakllari va shu kabilar tashkil etadi.

Talabalarni har tomonlama o'z kasbini mohir mutaxassisi bo'lib kamol topishida estetik tarbiyaning ahamiyati juda kattadir. Estetik ongning rivojlanishida madaniy merosimizni o'rganib chiqish, uni o'zlashtirish muhimdir. Bunda estetik his-tuyg'u, munosabat estetik did, estetik-idial, zarurat va estetik qarish kabi tushunchalar ularning kal mohiyatida muhim o'rin tutadi. Estetik tarbiya, talabalarni passiv tenglovchi, kuzatuvchi sifatida emas, balki faol, intiluvchan, Yangi fikrlarga ega bo'lgan shaxslar sifatida ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Istiqlol xalqimizning milliy ruhini ko'tarishga katta imkoniyat yaratdi. Uning azaliy turmush tarzi, urf-odatlarini madaniy-meroslari umuman har tomonlama inobatga olinib, hayotimiz javhalarida qo'llanilishi qo'zda tutilmoqda ekan. Xech shubhasiz ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy vazifalardan biri ma'naviy meros durdonalarini yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Demak, talabalarni san'at hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish ularning estetik hislarini tasavvurlarini va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunday ekan, oliy o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklarda taxsil olayotgan talabalarni san'at Bilan bog'liq bo'lgan bayramona tadbirlarga sahnaviy ko'rinishlariga jalb etish, tadbirlarida qobiliyatli talabalar ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, pedagogika institutlarining pedagogika fakultetlari o'quv rejasiga e'tibor

bersak, asosiy fanlar etib, pedagogika fanlari belgilangan hamda musiqiy-badiiy san'at fanlariga deyarli o'rin berilmagan. Shunday bo'lsada, bu fakultetda ta'lim olayotgan ayrim talabalarning musiqiy-badiiy san'atga o'ta qiziqishlarini guvohi bo'ldik. Ularning ayrimlarida sahna madaniyatini va qolaversa, musiqiy-badiiy didlarini rivojlantirish va bu orqali boshqa talabalarning manaviy ongiga tarbiyaviy, ijobiy ta'sir qilish maqsadida, bir talaba misolida o'ziga xos bo'lgan sinov-tajriba ishlarini amalga oshirdik. Biz bu talaba bilan oddiy savol-javoblar orqali undagi san'atga bo'lgan qiziqishini sezdik va oliygohda an'anaviy xar yili bo'lib «quvnoqlar va zukkolar» ko'rik tanlovida ishtirok etishga jalb etdik. Tinimsiz tayyorgarlikdan so'ng, bu talaba sahnada salbiy, ijobiy tavsifdagi rollarni ijro etdi. Kerak joyda qo'shiqlarni ham kuyladi. Bunday chiqishlar professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan juda iliq kutib olindi, chunki bu talaba yaqindagina oliygohga o'kishga kirgan hali hech kim uning san'atga bo'lgan bunday qobiliyati bilishmas edi. Shundan so'ng fakultetdagi barcha tadbirlar unig ishtirokida o'tadigan bo'ldi. Bu talabani biz 1999 yilda ilk bor boshlangan «Nihol 99» respublika oliy o'quv yurtlarining teatr studiyalari festivaliga olib bordim. U yerda biz «Kulganlar –kulaversin» nomli komediya asari bilan ishtirok etdik. Oliygoj jamoasining tayyorlab bergan asari namoyish qilinadigan kuni, albatta barcha ishtirokchilar hayajonda edi. Nihoyat asar ajoyib ijro etildi. Bu talaba o'ziga yuklatilgan rolni katta mahorat bilan ijro etdi va uning chiqishi tomoshabinlar tomonidan ajoyib qabul qilindi. Shundan so'ng talaba institutning madaniyat saroyida tez-tez qatanaydigan bo'lib qoldi. Chunki u endi san'atsiz yashay olmaydigandek edi. Ushbu tajriba va amalda bajargan ishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, musiqa yohud sahna madaniyati yunalishlari bo'yicha o'quv rejasiga bog'liq holda nazariy va amaliy bilimlar berilmaydigan fakultetlarda ta'lim olayotgan talabalarning ma'naviy ongini rivojlantirish ko'p holda sahnaviy ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etar ekan. Yuqorida aytganimizdak talabalarni bayramona tadbirlarga, sahnaviy kurinshlarga jalb etish darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida ularga o'z qobiliyatlarini namoyon etish uchun sharoitlar yaratib berish tadbirlarga qatnashtirib, ohirida

taqdirlab borish kabi ishlar ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli utishini, san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishga yul ochadi. Bu talabalar oliy o'quv yurtlarini tamomlagach umumta'lim maktablariga borib ta'lim berdilar. Anna shu ish joylarida ham oliygohda o'rgangan, amalda sinalgan tadbirlarni o'tkazishadi. Yosh avlodni ma'naviy-estetik va ahloqiy rivojiga katta hissa qo'shadilar. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'tkaziladigan bunday tadbirlar yosh-avlodlarimiz tarbiyasida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday tadbirlarni tashkil etish o'ziga xos ega bo'lib, o'tgan va hozirgi davrimizning rasm-rusumlari, san'at asarlarining turli faoliyatlari, badiiy san'atni keng foydalanadigan jihatlarini talabalar o'zlarida his etishadi.

Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilar o'qishni tamomlaganlaridan so'ng emas, balki oliy o'quv yurtida bilim olayotgan paytlaridanoq butun e'tiborlarini xalq pedagogik texnologiyalaridan noanan'anaviy usullarda foydalangan holda yuritishlari va asosiy darsdan tashqari vaqtlarida sahnaviy-badiiy tadbirlarda ishtirok eti olishi va pirovaridida o'zlarning ma'naviy onglarini rivoshlantirishlari lozim.

Demak, shaxs tarbiyasi jarayoni ijtimoiy muammo bo'lib, uni echimi esa har bir inson o'sha jamiyatning to'laqonli faol a'zosi bo'lishligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, jismoniy kamolot har doim ham inson ma'naviy kamolati va intellektual salohiyatini, ya'ni inson dunyoqarashi darajasini to'g'ri belgilab olish imkonini beravermaydi. Quyidagi ketma-ketlik esa inson kamolatini jismoniy va ma'rifiy darajalar asosidagi bosqichlarini belgilaydi: chaqaloq; go'dak; o'quvchi; o'quvchi-shaxs; talaba; talaba-shaxs; mutaxassis; yuqori malakali mutaxassis.

Ammo bu ketma-ketlik orqali to'la ma'nodagi shaxs kamolatini uning dunyoqarashi kengligi nuqtai nazaridan baholab bo'lmaydi.

Avvalo dunyoqarash nima?

Dunyoqarash – falsafa fanining eng muhim kategoriyalaridan biri. Falsafaning asosini tashkil qiladi, olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini yaratadi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishi, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Zeroki,



falsafaning asosi ham sog'lom aql tafakkuri va uning rivojiga mos keladigan dunyoqarashni yaratishdir. Buning uchun inson, eng avvalo, mukammal bilimga ega bo'lishi lozim.

Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z–o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari.

Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning asosiy tarkibiy qismlari: aql, ong, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur va shu kabilarga bog'liq.

«Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlar asosida individual dunyoqarash paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash hosil bo'ladi» [39].

Demak, ayrim odamning aqli, ongi bilan bog'liq holda shakllangan dunyoqarash individual dunyoqarash bo'ladi va uning muayyan ijtimoiy jamoa (guruh, qatlam, sinf, millat, elat, xalq, va jamiyat miqyosi)dagi ijtimoiy ongi asosida shakllangan dunyoqarashni ijtimoiy dunyoqarash deyiladi. Bu jarayonda individual dunyoqarashning kengayib borishi ijtimoiy dunyoqarashni yuksaltirishga asos bo'ladi va ular doimo bir–biri bilan muntazam aloqadorlikda bo'ladi va bir–birini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxs kamolati bosqichi ketma–ketligida yaqqol seziladi. Shu sababli ham o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirishni samarali amalga oshirish uchun shaxs intellektual kamolotini quyidagi ketma–ketlikda ifodalashni lozim topdik: aqlli odam; ongli odam; fikrli kishi; ilmi–bilimli kishi; g'oyali inson; ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs; madaniyatli va barkamol shaxs; olim; alloma; mutafakkir; donishmand va komil inson.

Yuqorida qayd etilgan ketma–ketlikdagi inson kamoloti bosqichlari ba'zi hollarda

parallel (bab–barovar) ravishda shakllansa, ba'zi hollarda biri ikkinchisiz rivojlanmaydi. Shu o'rinda qayd etilgan ketma–ketlik juda ham qat'iy emas.

Ma'lumki, tarbiya inson paydo bo'lishi bilan birga boshlanib ular uning jismonan baquvvat, ma'nan etuk insonlar bo'lib shakllanishi doimo ulug'lanib kelingan va jismonan baquvvat insonlarni polvon hamda ham jismonan, ham ma'naviy etuk insonlarga pahlavon, deb nom berilgan.

Demak, dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan va ular taraqqiyot jarayoni davomida turli ko'rinishlarni olgan. Albatta ular ko'rinishlari o'zining mazmun–mohiyati jihatidan ham turli yo'nalishlarda bo'ladi. Shu sababli ham ulardan ta'lim–tarbiya jarayonida foydalanish, ularning mos ko'rinishlarini tanlash ham o'ziga xos ijodiy jarayondir. Buni samarali amalga oshirishni osonlashtirish maqsadida ular haqida qisqacha ma'lumotlar keltiramiz.

Shaxs kamoloti ma'naviy etuk, barkamol avlodni shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi va bunday jarayon u yashab turgan ijtimoiy muhit hamda unga mos tarbiya bilan belgilanadi. Bu esa shaxs, millat va jamiyatning mentalitetiga bog'liqdir.

«Mentalitet – lot. mentalis – aqliy – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat.

Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf–odatlari, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi.

Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart–sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, o'zbek millati mentaliteti shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. O'zbek xalqi insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatini bebaho durdonalari bilan boyitgan. Uning mentaliteti aqliy qobiliyati o'tkirlashib borgan. Ammo XVI–XX asrlar oralig'ida turli istibdod va mustamlakachilik zulmini boshidan kechirganligi tufayli milliy mentalitetiga jiddiy putr etdi. Mustaqillik mafkurasi oldida O'zbek xalqining haqiqiy mentalitetini tiklash vazifasi turibdi» [40].

Mentalitet yoshlarimiz ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda mustahkam asos bo'ladi. Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham

umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Shu sababli ham tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldidagi muhim muammolar bo'lib kelmoqda va ular turlicha yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmoqda.

Demak, jamiyatimiz, davlatimiz oldida Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratishdek sharaflı vazifa turgan ayni paytda shaxsning hozirgi davr talabiga mos ravishda rivojlantirish ma'naviy boylik, axloqiy poklik va jismoniy tarbiya singari uch asosiy yo'nalish uning kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada ustozlar tashabbusi, xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, ularga hurmat uyg'otilishi, milliy an'analarimiz va urf–odatlarimizning saqlanishi hamda mazmunan boyitilishi, shuningdek, madaniyat, san'at, ilm–fan, texnika–texnologiya, ta'lim–tarbiya har tomonlama taraqqiy etishida muhim rol o'ynaydi.

Bizga ma'lumki, kishi tarbiyasi masalasi insoniyat paydo bo'lganidan boshlab dolzarb muammo bo'lib kelmoqda va tarbiyada «ufq» komillik sari yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababli ham jamiyat taraqqiyotini komil insonlar belgilaydi. Komil inson tarbiyasida boy o'tish ma'naviy merosimiz mavjud.

Insonni ezgulik sari etaklash haqidagi ta'limotlar muqaddas kitoblarimiz («Qur'oni Karim»), «Hadisi Sharif»), «Avesto» va shu kabilar)da doimo ulug'lanib kelingan. Bu borada Vatanimizda o'tmishda bu istiqbolli orzu–istaklar doimiy vazifaga aylangan va u bilan jamiyatimizning har qanday a'zosi shug'ullanishi ham farz, ham qarz bo'lgan. Ayniqsa, tarbiya masalasi bilan nafaqat oila boshlig'i yoki ta'lim muassasalari mutasaddilari, balki yurtimizning donishmandlari, ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, tasavvuf ilmi sohiblari va h.k.), adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadlari bo'lgan. Jumladan, komil inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Farobiyning Fozillar jamiyati («Fozil odamlar shahri»); Alisher Navoiyning adolatli jamiyat qurish haqidagi ta'limoti; Imom Al–Buxoriyning hadis ilmining sultoni ekanligi; Mahmud Az–Zamahshariyning

Jarulloh («Olloning qo'shnisi»), degan yuksak maqomga sazovor bo'lishi; Ahmad Yassaviy xikmatlari; Bahouddin Naqshbandiyning «Diling Olloda, qo'ling mehnatda bo'lsin» («Dilba Yoru, dast–ba kor») yo'nalishlaridagi ta'limoti; At–Termiziy o'g'itlari; Xoja Axrori Valiyning «Shayxlar shayxi», degan ulug' nomga sazovor bo'lishi; Marg'iloniy, Motrudiy, Sufiy Olloyor, G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Mahmudi A'zam va shu kabilarning islom falsafasidan oziqlangan «Ilmi Hadis» yo'nalishidagi ta'limotlari; Yusuf Xos Hojib, Abbas Al–Javhariy, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiylarning komil insonlar haqidagi ta'limotlari; Mahammad Muso Al–Xorazmiy va Abu Rayhon Al–Beruniylarning dunyoviy kashfiyotlari va hamda ijtimoiy–axloqiy qarashlari; Abu Ali ibn Sino tibbiyoti va uning komil insonni jismonan hamda ma'nan sog'lom qilib tarbiyalash g'oyasi; Amir Temur davlatchiligi va uning adolatli ijtimoiy–tashkilotchilik ishlari (Amir Temur adolatni kuch bilan, kuchni esa adolat bilan uyg'unlashtirdi. Sohibqiron tamg'asining naqshi «Rosti–rusti» bo'lib, bu «Haqgo'y bo'lsang – najot topasan», demakdir); Mirzo Ulug'bekning koinot va ommaviy ta'lim haqidagi ta'limotlari; Mirzo Boburning millatlararo do'stlikni, dinlararo big'rikenglikni va adolatni qadrlash hamda ta'limni (shu jumladan, O'zbek alifbosini, ya'ni «Xatti Boburiy»)ni isloh qilish sohasidagi ishlari; Ma'mun Akademiyasi «Donishmandlik uyi» («Bayt ul–xikma»)lardagi ma'naviy–axloqiy ta'limotlarida teran ifoda etilgan.

Demak, buyuk bobolarmizning o'lmas merosi bugungi yoshlarning ma'naviy tarbiyasida va ayniqsa ularning milliy dunyoqarashi kengayishida bitmas–tuganmas xazinadir. Ularni ibrat–namuna qilib ko'rsatish orqali yoshlar ongida quyidagi insonparvarlik fazilatlari yanada yuksaladi: – mardlik; – botirlik; – pahlavonlik; – mehnatsevarlik; – kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo'lishlik; – do'stlik va muhabbat tuyg'ulariga sadoqatli bo'lishlik va shu kabilar.

Demak, inson kamoloti va uning yuksalishida yoshlarimiz ma'naviy tarbiyasi va ilmiy dunyoqarashi kengligi, ibrat–namuna muhim rol o'ynar ekan. Shu sababli ham bugungi yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ular ongiga millat, Ona tuproq, Ona Vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy–ma'naviy merosimiz haqidagi ma'lumotlarni ta'lim–tarbiyaning barcha

jabhalarida singdirib borishimiz lozim.

Shuning bilan birga yoshlar ongida millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni singdirib borish ham ularning milliy dunyoqarashini kengaytirishga asosiy omillardan biri bo'lishligi, shubhasiz. Bunda inson kamoloti uchun milliy tarbiyamizga xos bo'lgan mehr–oqibat, hurmat–izzat, muruvvat, or–nomus, bag'rikenglik va shu kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Demak, milliy xususiyatlarimizga mos tarbiyani olgan va olayotgan yoshlarimiz muntazam ravishda kamol topib boraveradi hamda ularning dunyoqarashi ham unga mos ravishda yuksalib boradi.

Umuman olganda, barkamol avlodni tarbiyalash, o'zining ma'naviy–ma'rifiy, tashkiliy–uslubiy, ijtimoiy–iqtisodiy jihatlari bilan murakkab va mas'uliyatli dinamik jarayondir. Biz bu jarayonni amalga oshirish ketma–ketligini quyidagicha ifodalashni lozim topdik: taraqqiyotning o'zbek modeli (O'zbekiston ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili, ya'ni jamiyatni isloh qilishning beshta tamoyili); barkamol avlod orzusi va unga erishmoq yo'li; orzuga erishishda barkamol avlod vazifalari va burchlari; orzuga erishishda uzluksiz ta'lim tizimi o'rni va roli; orzuni ro'yobga chiqarishda zaruriy uzlukiz ta'lim tarkibi; kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari; KTMDning milliy modeli; KTMDni joriy etishning ilmiy–uslubiy ta'minoti; barkamol avlod tarbiyasi jarayonining tashkiliy–uslubiy va ilmiy–pedagogik ta'minoti; tarbiyada maqsadga erishganlikni baholash mezonlari; barkamol avlodning tarbiyalanganligi haqidagi xulosalar va keyingi faoliyatga tavsiyalar.

Barkamol avlod tarbiyasining bu qayd etilgan ketma–ketligiga, O'zbekiston ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili asos qilib olingan bo'lib, barkamol avlodni amaliy faoliyatgacha bo'lgan jarayonini o'z ichiga olgan va o'z xususiyatiga ko'ra barkamol avlod tarbiyasiga kompleks yondashuvdir.

Shu sababli ham ushbu ishda yoshlarimizni tarbiyalashda va ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda shaxs ijodiy kamoloti bosqichlari hamda ulardan ta'lim–tarbiya jarayonida ibrat–namuna sifatida foydalanishga tavsiyalar berish

haqidagi ma'lumotlarni yoritishni maqsad qilib oldik.

Bizga ma'lumki, kishi tarbiyasi masalasi insoniyat paydo bo'lganidan boshlab dolzarb muammo bo'lib kelmoqda va tarbiyada «ufq» komillik sari yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababli ham jamiyat taraqqiyotini komil insonlar belgilaydi. Komil inson tarbiyasida boy o'tish ma'naviy merosimiz mavjud. Bunda umumbashariy qadriyatga ega bo'lgan ulug' bobokalonlarimizdan Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Imom Al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abbos Al-Javhariy, At-Termiziy, Al-Motrudiy, Az-Zamaxshariy, Al-Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy, Xoja Axrori Vali, Sakkokiy, Mahmudi A'zam, Sufi Ollayor va boshqalardan qolgan boy milliy merosimizni komil inson tarbiyasida ibrat–namuna sifatida foydalanmoq imkoniyati bor.

Demak, yoshlarimizga shaxs kamoloti pillapoyalarini hisobga olgan holda ta'lim–tarbiya berishdagi barcha xatti–harakatlar (o'quv qo'llanmalar, darsliklar, ta'limning axborotli texnologiyalari va h.k.)da quyidagi omillar asosiy diqqat–e'tiborda turish lozim ekan:

milliy–ma'naviy qadriyatlarimiz haqidagi batafsil ma'lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishga qulay holga keltirib, ya'ni axborot ko'rinishiga keltirib tizimlarga (qomusiy va hadis ilmi olimlari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rasm–rusumlar va urf–odatlar, an'analar va h.k.) ajratish;

yoshlarimizda shaxs kamolati bosqichlari asosida Vatan tuyg'usini shakllantirish va bunda ular ongiga Ona tuproq, Ona Vatan, Vatan sog'inchi, Vatan qayg'usi kabi tushunchalarga hurmat uyg'otish;

yoshlar tarbiyasida «Barkamol avlod», «Komil shaxs», «Olim», «Pahlavon», «Alloma», «Mutafakkir», «Donishmand» kabi kamolat bosqichlaridan aniq dalillar asosida ibrat–namuna tizimidan keng foydalanish lozim;

shaxs ijodiy kamoloti bosqichlarini talabalar ongiga singdirishda aniq fanlardan ta'lim–tarbiya berishda qomusiy olimlar, donishmand, faylasuflar ijodi va faoliyatidan foydalanish, ijtimoiy–gumanitar fanlar bo'yicha esa shoirlar,

yozuvchilar, tarixchilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, hadis ilmi sohiblarini ibrat–namuna qilib ta'lim–tarbiya berish ijobiy pedagogik samaralarni beradi; talabalar ongiga shaxs ijodiy kamoloti bosqichlarini ilmiy, ma'naviy qadriyat sifatida singdirish ularni ijodiy kamolot sari intilishiga turtki bo'ladi va natijada ular ijtimoiy faol shaxs bo'lishga intiladi, olimlikni va komillikni havas qiladi.

## **1..2. Maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni**

O'zbek xalqi o'z mustaqilligini qo'lga kirgizganidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg'usi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz ma'naviyati va mazmuniga aylanmoqda.

Bu borada ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ishlaridan faxrlangan holda, ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va tadqiq qilish, puxta o'rganish, hayotimizga tadbiq qilish muammosi qad ko'tarib turibdi. Bular bolalarimiz va yoshlarimizda bobolari ishlari va nasl-nasablaridan faxrlanish, milliy qadriyat va an'analarimizga sodiq bo'lishga harakat qilishga undovchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov o'z nutq va asarlarida Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlari hamda xalqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish yo'llari haqida fikr yurgizar ekan. Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati, manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligiga urg'u bergan.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo'shnicilik va mehr-muruvvatlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. «O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol tortirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir»,– deb ta'kidlaydi.

Haqiqatdan, qadriyatlarimiz va an'analarimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratmasdan turib, bu muhim vazifani amalga oshirib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi»da ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini yaratish, barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilanib, uni hayotga tadbiq etish ishlari



davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan deb hisoblanishi ko'rsatilgan .

«Ta'lim to'g'risidagi Qonun»da etim va ota-onasining homiyligidan mahrum bo'lgan, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonli bolalar va o'smirlarni, ijtimoiy yordamga muxtoj bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va o'qitish borasida ta'lim hamda vossiylik organlarining burch va vazifalari belgilab berilgan.

Pedagogik san'at vaziyat bilan bog'liq. Bu yerda har gal hamma narsa guyo yangidan sodir bo'lgandek tuyuladi. Binobarin, kishi o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi, rivojlantirishi amalda mumkin bo'lmaydi. Pedagogning mehnati – bu behad izlanish, azob uqubatli kechinmalar, ilhom, betakror ishlar, hafsalaning pir bo'lishi, o'quvchilar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilish kabilardir. Pedagogik san'at – bu qandaydir qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan jarayondir.

Har qanday ijodkorlik, buning ustiga pedagogik ijodkorlik quruq joyda, faqat hissiy kechinmalar asosida boshlanishi mumkin emas. Tarbiya san'atida o'zining pedagogik mahorati, o'zining «bir qolipdagi» mehnat madaniyati borki, ularni bilib olish zarur. Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish butun tizimi ana shuni bilib olishga qaratilishi kerak. Biroq, hali hech kim oliy o'quv yurtida o'qib yoki o'qituvchilar malakasini oshirish kursini tamomlagandan keyin usta pedagog bo'lib qolmagan. Pedagogik mehnat ustalari ta'lim muassasalarida vujudga keladi, o'quvchilar bilan muomalada shakllanadi.

Xo'sh, pedagogik mahorat nima, u nimalardan tashkil topadi? Bu fahm-farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan pedagogning o'quvchilar qalbi qanday ekanligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan o'quvchiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dalillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassamidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogikaning metodika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi. Albatta, pedagogning mahorati erishilgan narsalar chegarasidan tashqariga chiqishga doimo intilishni ham nazarda tutishi lozim.

Demak, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida pedagog pedagogik mahoratga ega bo'lish bilan birga, u o'quvchi qalbini tushunishi, uning qiziqish va moyilliklarini his qilishi kerak. Shunga ko'ra tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishi va o'tkazishi lozim. Albatta, rejalashtirish o'quvchilarning maslahatisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Tarbiyaviy tadbirlarni shunday tashkil qilish kerakki, unda o'quvchilar faol bo'lishsin, o'qituvchi esa nazoratchi sifatida namoyon bo'lsin. Shundagina ko'zlangan maqsadga aniq va tez erishish mumkin.

O'quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda o'qituvchining muomala odobi ham juda katta ahamiyatga egadir. O'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita yoki bilvosita muomalasi o'tkazilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida sodir bo'ladi. Mazkur jarayonni o'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi deb qarash mumkin.

Muomala – bu ma'lumotlar, axborotlar jarayonidir. Ushbu jarayon ikki yo'nalishda, ya'ni boshqarish subyektidan (o'qituvchidan) boshqarish obyektiga (o'quvchiga) borishi yoki aksincha – obyektidan subyektga borishi mumkin. O'qituvchi bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, umuman jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida g'oyat xilma-xil ma'lumotlarga ega bo'ladi va hokazo. O'z navbatida o'qituvchi muomala jarayonida o'z o'quvchilariga ham ustoz va shogird odobi an'analari mavzusiga qaratilgan ma'lumotlarni ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi o'tkazilishi kerak bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar mazmuni, shakli, vositalari haqida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lumot berish bilan birga, ularning ishlash jarayonlari haqida ham tushuncha beradi.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarni insonga mehrlil, rahm-shafqatli, insonparvar, kindek qoni to'kilgan zaminiga mehr qo'yish va h.k kabi tuyg'ularni singdirishga katta e'tibor berib kelingan.

Shu tufayli ham birinchi navbatda bolalarni o'z yaqin kishilariga ota-ona, aka-uka, opa-singil va oiladagi kattalarga bo'lgan tabiiy mehr his-tuyg'ularini shakllantirib voyaga etkazish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki kishilarning, shu jumladan bolalarning ota-ona va qarindosh-urug'lariga,

katta-kichiklarga mehribonligi, g'amxo'rligi tug'ma hodisa bo'lmay, tarbiya natijasidagina shakllanishi mumkin bo'lgan fazilatlardir.

Bolada ota-onaga mehr-muhabbat hislarining tug'ulishi ona suti va mehri orqali singadi. Shu sabab ham bolaning ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbatini uning go'daklik davridan kishini tanishi, unga talpinishidan boshlab, ota-ona bilan payvand holda shakllantiriladi.

O'quvchilar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasining muhim qismlari bo'lmish vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish katta ahamiyatga ega.

Maktabda o'quvchilarda yuksak ma'naviy-ahloqiy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishi, asosan bolalarning katta kishilar bilan qiladigan o'zaro muomala, muloqot va munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Insonda eng yuqori ma'naviy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bularni bir-biridan ajratib qarash qiyin.

Bular bir-birining zamirida paydo bo'luvchi, shakllanuvchi va shaxs ma'naviyatini belgilovchi his-tuyg'ulardir.

Mehr-muruvvat his-tuyg'ulari vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ulari zamirida va aksincha mehr-muruvvat his-tuyg'ulari zamirida vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ulari paydo bo'ladi.

Insonparvarlik tushunchasi - o'zbek millatida o'ziga xos alohida xususiyatga ega.

Bu fikrlar zamirida Ona-Vatan va o'z xalqiga cheksiz muhabbat va mehr his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirish, uning ongida vatanparvarlik, insonparvarlik va mexr – muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish vazifasi turganligini anglash qiyin emas.

Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlarida vatanga va insonga sadoqat, vatanparvarlik va insonparvarlik his-tuyg'ularini bolalar tarbiyasiga singdirib borish kerakligini uqtirib: «Avvalambor bizning tayanchimiz va suyanchimiz, umidimiz va kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizni, yosh avlodimizni Vatan va

insonparvarlik tuyg'usi va maqsadi ruhida tarbiyalashimiz ham qarz, ham farzdir. Ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikr-tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo'lgan vatanparvar etib voyaga etkazish - barchamizning otalik va onalik burchimizdir», deganlar□.

Prezidentimiz o'gitlariga amal qilmoq, yurtimiz xalqining burchi hisoblanadi.

O'zbeklarning urf-odatları bo'yicha, o'zi yashab turgan joy muqaddas hisoblanadi.

Bu muqaddas tuproqqa nisbatan yovuz niyat, yomon so'z aytilmaydi.

Vatan, yurt, millat tushunchalari ulug'vor tushunchalar bo'lib, hamisha mehramuxabbatdan quvvat oladi. Shu jihatdan qaraganda, bu tuyg'ular egizak qondoshjondoshdurlar.

Bu his-tuyg'ularni yosh murg'ak yuragida uyg'atish, uni rivojlantirish va takomillashtirib borish, barcha maktab o'qituvchilari faoliyatlarida, ota-ona, mahalla fuqarolari va xokazolarning muqaddas burchlari hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ko'p jihatdan, barkamol avlod tarbiyasiga bog'liq. Buning uchun dono xalqimizning va mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob namunalari va his-tuyg'ularni o'rgatib borishimiz zarur.

Pedagogika va psixologiya fanlari bolani har tomonlama tarbiyalashni o'zining muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydi. U bolaga ahloqiy tassavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning ahloqiy xis-tuyg'ulari va sifatlarini, ijobiy munosabatlari va xulq madaniyatini shakllantirishiga yo'llay di.

Bolaning ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ulariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali bo'lishi uchun har bir yosh bosqichi ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilish kerak.

Bolani vatanga, millat, xalq, mahalla, oila, ota-ona, aka-uka, yoru-do'st qo'niqo'shniga, kolaversa xar bir insonga, tabiat va nabobatning har bir bo'lagiga nisbatan mehrlil qilib tarbiyalashda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehramuruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish beqiyos ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bu bebaho his-tug'ularni yoshlarning ruhiga singdira boshlashni bugungi

hayotimiz taqozo etmoqda.

Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari — bu qo'shaloq tuyg'ular bo'lib, ularni bolalarimiz ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimida birgalikda singdiriladi.

Bolalarimizning ilk yoshlik paytlaridan boshlab, bu yuqori his-tuyg'ularini shakllantirib, o'stirib borish - ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib beruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Endilikda hayotimizning barcha sohalarida, respublikamizning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, avlod-ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf odatlari va ko'nikmalarini hisobga olib, bolalarimizda o'z vatani va xalqiga mehr, samimiylik his tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish, tarbiya nazariyasi va amaliyotiga tadbiq etish muhim dolzarb muammoga aylanmoqda.

Vatan tuyg'usi to'g'risidagi fikrlar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan yurtdosh mutafakkirlarimiz al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur as-Samarqandiy, Ibn Sino asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulariga sodiq bo'lib, o'z asarlarida bu tushunchalarning muqaddas ekanligini XX asrning 30-50 va nihoyat 80-yillarida xalqimizga qarshi uyushtirilgan ishlarda – qatag'onlik va surgun azoblarini o'z boshlaridan kechirib, halok bo'lgan yurtdoshlarimiz, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi yozuvchi, shoirlarimiz o'z asarlarida kuylaganlar.

Hayotimizning keyingi yillarida butun jaxon miqyosida ayrim toifa yoshlar miyasini zaxarlashga, ularni ekstrimizim va terrorchilik yo'liga chalg'ituvchi guruhlarning paydo bo'lishi, mamlakatimizga kirib kelgan «Vaxobiylik», «Xizbuttaxrir» kabi zararli oqimlar yoshlarimizni chalg'itish, ularning ongi va qalbini zaharlab, o'z ta'sirlariga olish uchun qilgan harakatlari va ba'zi yoshlarning bu ta'sirga berilganliklari, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga befarq qaramaslikka undaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu muammo ustida olib borilgan tadqiqotlarni

etarli emasligini qayd etish mumkin.

Adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston va xorijiy pedagog va psixolog olimlarimizning bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining u yoki bu tomonlarini, tadqiq qilishga qaratilgan salmoqli tadqiqotlari anchagina va ular beqiyos ahamiyatga ega.

Hadislarimizda «Vatanni sevmoq iymondandir» deyiladi. Vatan ostonadan boshlanadi, deydi donishmandlar. Bu dono so'zlar har bir kishining o'z vatanini sevish va qadirlashga da'vad etadi.

Demak, Vatan inson uchun o'zi tug'ilib o'sgan joy, go'shadan boshlanib butun bir mamlakatni qamrab oladi. Vatanni sevish – o'z ona qishlog'i, shahri, o'zi balog'atga etayotgan joyini sevish va ardoqlashdir.

Musiqani sevuvchi insonning ko'ngli ezgulikka moyil bo'ladi, ya'ni u jaholatga qarshi samarali vosita, o'tkir quroldir. U bor yerdan hajolat qochadi. U millat tanlamaydi, lekin milliy ruh uyg'otadi.

Rivoyat qilishlaricha qadim zamonlarda bir millat podshohining farzandi yo'q ekan. U o'zidan so'ng mamlakat taqdiri qanday bo'lishini uylab qayg'urar ekan. Lekin uning oqil va dono vaziri bor ekan. Kunlar o'tib shoh vafot etibdi. Vazir barcha ayonlarni yig'ib, shoh vafot etgan kuni mamlakatda tug'ilgan barcha go'daklarni saroyga olib kelishini buyuribdi. Buyruq bajarilgach barcha go'daklarni saroydagi bir xonaga yotqizibdi. A'yonlar esa vazirning bu ishidan juda ajablanishibdi. Vazir mashshoqlarni to'plab barcha bolalar yig'lagandan so'ng, bir xazin kuy chalishni buyuribdi. A'yonlarga esa musiqani tinglagandan so'ng birinchi bo'lib yig'idan to'xtagan bolani aniqlabdilar. Vazir u go'dakni qo'lga olib, mana shu bola mamlakatga podshox bo'lishini aytibdi. “Chunki-debdi vazir musiqa sadolarini his qilgan qalb yomonlikka moyil bo'lmaydi, bu boladan kelajakda insonlarni sevuvchi, mehr-murruvatli, adolatli podshoh yetishadi”. Garchi bu rivoyat bo'lsada, haqiqatdan yiroq emas, chunki u inson kayfiyatiga kuchli ta'sir etadi, uni ko'taradi va mehr-muhabbatga moyil qiladi. Shunday ekan mustaqil yurtimizning munosib fuqarolari bo'lmish komil insonlarni tarbiyalab yetishtirish uchun musiqiy tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratish, musiqiy ta'lim

beriladigan o'quv dargohlarida ushbu fan o'qitilishi uchun kerak shart-sharoitlar yaratish, mavjud muammolarni oqilona hal qilmoq zarur.

Ta'lim tizimida ham musiqiy ta'limni ushbu tizimni eng quyi pog'onasi bo'lgan maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatidan boshlab kuchaytirmoq, bu yo'lda uchrayotgan to'siq va muammolarni bartaraf qilmoq kerak. Chunki, biz ham farzandlarimizning kelajakda jaholatdan yiroq, ma'rifatli, fozil va komil insonlar bo'lib yetilishini istaymiz. Shuning uchun ularni bolalikdan musiqasevar, adabiyot va san'atning barcha jabhalariga ixlosmand, keng fikr, axloq-odobli, mehr-oqibatli, badiiy-estetik dunyoqarashi yuksak qilib tarbiyalashimiz va shu ishni bolalar bog'chalaridan boshlamog'imiz lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan ommaviy-musiqiy tadbirlarning bola shaxsi shakllanishidagi roli musiqa madaniyati mashg'ulotlaridan aslo kam emas. Chunki, ushbu muassasalarda olib boriladigan tadbirlarda muassasa pedagog-xodimlarining hamda tarbiyalanuvchilarning barchasi qatnashadi. Bu esa bolalarni jamoat joylarida o'zini yaxshi tutish va o'zining yaxshi sifatlarini ko'rsatishga o'rgatadi. Bunday tadbirlarning eng asosiysi bayram ertaliklari bo'lib, u uzoq tayyorgarlik hamda tashkilotchilik, puxta bilim va mahorat talab qiluvchi tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu muassasalarda ertaliklar asosan mustaqillik kuni (1-sentabr), yangi yil, vatan himoyachilari kuni (14-yanvar), xotin-qizlar kuni (8-mart), navro'z umumxalq bayrami (21-mart), xotira kuni (9-may) va bog'cha bilan xayrlashish kuni (1-iyun bolalar kuni) ga bag'ishlab o'tkaziladi.

Bolalar muassasalarida o'tkaziladigan musiqiy tadbirlar ichida ertaliklardan tashqari tug'ilgan kun, ota-onalar bilan uchrashuv, viktorina-kornaval, musiqiy sayrlar o'tkazilishi mumkin. Bunday tadbirlar qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar bolalar emotsional his-tuyg'ularini, axloq sifatlarini aqliy va jismoniy kamolotini yaxshilashni amalga oshiradi va bunday tadbirlarda musiqa asosiy rolni o'ynaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar – o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga,

axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

-darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

-o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo'lga ko'yish;

sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, ota-onalar, sinf faollari, uslubiy yordam ko'rsatish;

umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishi qiyin.

«Ta'lim to'g'risida» gi qonunning 17-moddasiga asosan maktabdan tashqari ta'limda bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy-texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Musiqiy ommaviy va tarbiyaviy ishlarga oid to'garaklarda o'quvchilarning badiiy-estetik didini, ma'naviyatini, axloqini Vatanga, el-yurtga bo'lgan mehr-



muhabbatini mehnatga, bilim olishga bo'lgan intilishini, qobiliyatini oshirish va albatta yangi-yangi samarali ishlarga bosh qo'shmog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirni amalga oshirish rejasida estetik, tarbiyaga e'tiborni qaratish lozim. Shunda o'tkazilayotgan tadbir: hox konsert ko'rinishida bo'lsin, hox saxnaviy ko'rinish shaklida bo'lsin: nafaqat tomashabinlarga, balki ko'rinishda ishtirok etayotgan, qatnashayotgan o'quvchilarga ham estetik zavq-shavq bag'ishlaydi.

Demak: Barkamol inson uchun zarur bo'lgan musiqiy, ommaviy tadbirlarni amalga oshirishning mohiyati mazmunini to'g'ri taxlil qilib munosabat bildirish;

Musiqiy ommaviy tadbirlarni tashkil etish va uni amalga oshirishning shakl va yo'llarini izlash;

Musiqiy ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va uni ko'tarinki ruxda o'tkazish ta'lim muassasalarida badiiy havaskorlik to'garaklariga iqtidorli yoshlarni jalb etish, sahnaviy ko'rinishlar orqali o'quvchilarni ma'naviy estetik tarbiyalash, ularga davr bilan hamohang bo'lgan asarlarni, kuy va qo'shiqlarni, raqslarni o'rgatish, drama, komediyali sahnaviy ko'rinishlardan baxramand etishdek ma'suliyatli va sharaflil ishlar zamon talabiga mos va juda zarur yumushlardir.

O'quvchilar qalbini urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni o'rgatish orqali ulardan odob-axloq nurlarini yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi o'quvchi chuqur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik, tashkilotchilik san'atini egallamog'i lozim.

Maktabda sinfdan tashkari musika tushunchalarini amalga oshirish metodikasi kursining maqsadi:

-bo'lajak o'qituvchi tarbiyachilar, to'garak rahbarlariga tarbiyaga doir tadbirlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari haqida bilim berish;

-o'quvchilarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining urf-odatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan foydalanish manbashunoslikka o'rgatish;

-ommaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchi yoshlarning yosh xususiyatlari qiziqishi, jamoadagi ijobiy va salbiy tomonlarining mavjud darajasiga e'tibor berish;

-tarbiyaviy tadbirlarni sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi

va shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish kabilar.

Yosh avlodni yuksak madaniyatli, estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqa ta'limining ahamiyati biqiyosdir. Biz ushbu malakaviy bitiruv ishimizda yangi o'quv dasturi asosida musiqa ta'limining mazmuni va mohiyati. Davlat ta'lim standart va o'quv talabi asosida musiqa ta'limining mohiyati, musiqa tarbiyasining shakllari, musiqa ta'limining mazmuni, haqidagi qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki musiqa o'qitishning mavjud holatidan yangi dastur talabi asosida dars o'tish sinfdan tashqari tarbiya shaklidan mazmuni va mohiyati bilan farq qiladi.

Davlat ta'lim standart va yangi o'quv dasturi talabi asosida dars mazmuni musiqa darsidagi faoliyat turlarining darsning umumiy mazmuniga buysundirish, musiqa ijodkorligi, raqs va ritm cholg'u xarakterli chapak va bolalar cholg'u asboblari bilan chalish kabi faoliyat turlarini dasturga ilk bor kiritilishi boshlang'ich sinflarda musiqa darsini o'qitishda musiqa o'qituvchisi oldiga dolzarb muammolarni hal qilishni quyadi.

Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ilmiy izlanishlarimiz natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiq va eng asosiysi milliy g'ururga ega bo'lgan ilmiy dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatli o'qituvchilarni tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biri ekan.

### **I.3. Maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliyotdagi ahvoli**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil etilganlik darajasini aniqlash maqsadida Qarshi shahridagi 1- va 21-umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Buning uchun maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari o'rinbosarlari bilan suhbat o'tkazdik va ularning ishlarini o'rgandik. Suhbat jarayonida ularga maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar qanday olib borilayotganligi haqidagi savollar bilan murojaat qildik. Ular o'quvchilar bilan ham ma'naviy-axloqiy, ham estetik, ham ekologik tarbiyas borasida ishlar olib borishlarni aytib o'tdilar. Ular zimmasiga o'quvchilar tarbiyasi bilan birgalikda ota-onalar va maktab o'qituvchilari ma'naviyatini boyitish ishlari ham yuklatilganligini ta'kidlab o'tdilar.

Kuzatilarimiz shuni ko'rsatdiki, mazkur maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ish tashqilotchilarining istiqbol va joriy ish rejalari mavjud hamda mazkur ish rejalarda o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga mo'ljallangan qator tadbirlarni tashkil etish rejalashtirilgan. Ular ota-onalar ma'naviyatini boyitish va ularni bolalari ta'lim-tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida "Ota-onalar universitetlari"ni tashkil etadilar. Universitet mashg'ulotlarining muntazam tashkil etilishi hamda mazmunan boy bo'lishi uchun mas'ul hisoblanadilar. Shuningdek, maktab, oila va mahalla hamkorligini amalga oshirish uchun ular rahbarligida "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etiladi. Muntazam va aniq reja asosida tashkil etiladigan bunday tadbirlar juda samarali bo'lib, ota-onalarning va mahalla faollarining maktab bilan aloqasini o'rnatish, o'quvchilar va o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish, siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida davlat ramzlari qabul qilingan kunlarga va muhim sanalarga bag'ishlab qator tadbirlar tashkil etiladi. Masalan, maktab va shahar kutubxonasi bilan hamkorlikda "Kitobxonlik konferensiyasi", kitoblar ko'rgazmasi va shoir hamda yozuvchilar ijodiga bag'ishlangan tadbirlar ular jumlasiga kiradi.

Maktab ma'naviy-ma'rifiy ish tashkilotchilari maktab psixologlari va maktab ma'muriyati bilan birgalikda o'quvchilarni kasbga yo'llashga doir vazifalarni ham amalga oshiradilar.

Barkamol avlodni atroflicha yetuk inson qilib tarbiyalashda, maktablarda o'qitiladigan musiqa madaniyati darslarining ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Shunday holatda musiqa san'ati u milliy qadriyatlar asosidagi nafis san'at, u fan, u xalq dardi, tili, dili, ma'naviy madaniy, ma'rifiy tadbirlar mazmunini tarbiyaviy ahamiyatini teran anglashga yordam beruvchi vositadir. Musiqa madaniyati o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim maktablarida, litsey, kollej va maktabdan tashqari muassasalarda o'ziga xos milliy ma'rifatni, ma'naviyatni, madaniyatni ahloqiy tarbiyani, musiqa madaniyati darslarida va musiqiy bayram tadbirlari vositasida targ'ib etuvchi mutaxassis sifatida, o'z o'rnini va mavqiyiga egadir. Jamiyatimizning taraqqiyot bosqichida yoshlarimizning shaxs sifatidagi ma'naviy-ma'rifiy, madaniy shakllanishi dolzarb muammodir. Vatan tinchligi, jahon hamjamiyatlari qatorida obro-e'tibori, shon-shuhrati, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlarida eng muhim o'rin egallaydigan bugungi bakalavrlar, ertangi mutaxassislarimizdir. Demak, jamiyatimizning buguni, ertasi va istiqboli yoshlarimizga, ularning qay darajada bilim olishiga, tarbiyalanishiga bog'liqdir. Chunki, bo'lajak musiqa o'qituvchilari, yosh mutaxassislar, harakatchan, ilm-fanga, musiqa san'ati va adabiyotga, axborot texnologiyalarini chuqur o'rganishga fan va texnika taraqqiyotini puxta o'zlashtirishga va hissa qo'shimga aqlan intiladilar. Oliy maqsad, yoshlarimizni qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashdir. Demak, yangi avlodni qanday tarbiyalash jarayonlarini amalga oshirishning samarali vositalarini tanlash va izchillik bilan amalga oshirishga bog'liqdir. Bu borada musiqa madaniyati o'qituvchisi avvalo, o'zi tarbiyalangan, yuksak madaniyatli, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy savodli, bilimli yangi davr talabi asosida puxta bilimga ega, katta salohiyatli, fikr-mulohaza yurita olishi davr talabidir. Musiqa madaniyati fani misolida darslar jarayonida, tarbiya bobida yangi davr o'zbek ziyolisi sifatida ijobiy fazilatlar mazmunini tahlil qilib tushuntira olish; Hayot sahnasida yashash va o'qishda namuna ko'rsata olish;

Komil inson qiyofasini, aql-idrok, keng tafakkur olami bilan shaxsning ma'naviy qiyofasini tarbiyalashda, mehnat qilish, yangi davr talabi asosida faol faoliyat yurita olish;

Musiqiy ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlarni mustaqil tarzda mutaxassis sifatida to'la qonli bajara olishi lozim.

Zamon talabi asosida, musiqa madaniyati o'qituvchisining ma'naviy-ma'rifiy, madaniy shakllanishi jamiyatimizning taraqqiyotidagi dolzarb masalalardan biridir. Chunki, mustaqilligimizdan keyingi tubdan burulish davrida ayniqsa, ta'lim tarbiya tizimida keng islohatlarni amalga oshirish barcha soha mutaxassislarining tafakkurini yangilash, yangicha fikrlash, yangicha ish uslublarini izlash, yaratish dolzarb vazifaga aylandi. Bu dolzarb muammoni ayniqsa, yosh avlodlar ongiga singdirishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimini amalga oshirishda, samarali vositalarini joriy etishni taqozo etadi. Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilarini har tomonlama bilimli, saviyali qilib tarbiyalashda, maktablarda o'qitiladigan fanlar bilan birga "Musiqa madaniyati" fani va o'sha mutaxassisning, darsdan tashqari tashkil etadigan bayram tadbirlari ssenariylarni tayyorlashi, sahnalashtirishi va unda milliy qadriyatlarimizni urf-odat, marosim va azaliy an'analarimizni musiqiy bayramlarni yuksak mahorat bilan yosh avlodlar qalbiga singdira olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini mutaxassislikka tayyorlash fanlarini o'rgatish jarayonida, o'ziga xos ijodkorona fikr-mulohaza yuritish, yangiliklarni izlash, har bir mavzuga yanada yangi mazmun baxsh etishini taqozo etadi. Bunday jarayon musiqa o'qituvchisining imkoniyatlarini kengaytiradi. Hamisha izlanish, yangiliklarni kashf etish, yosh mutaxassislarga xos xususiyatdir. Musiqa o'qituvchisi chuqur bilimli, tadbirkorlik, tashabbuskorlik mahoratini egallagan, tarbiyalab ta'lim beruvchi, ta'lim berib tarbiyachilikni san'at darajasiga ko'tara olishdek mas'uliyatni javobgarlikni tushunmoqlari lozim. Davr talabi asosida, musiqa madaniyati fani vositasida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda "musiqa to'garagi", "drama to'garagi", "raqs to'garagi" va boshqa to'garaklarda, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarda, yoshlarni tarbiyalash muammolariga to'liq jalb etishni talab

etadi. Yosh avlodlarni avvalo fanlar, darslar va darsdan tashqari jarayonlarda ona vatanni, milliy qadriyatlarni, tarixiy manbalarni o'rganadigan, qadrlaydigan va uni targ'ib etadigan komil insonlarga mutaxassislariga talab ehtiyoj kunsayin ortib bormoqda. Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisi vaqtini rejalashtirish, uni mazmunli tashkil etishga odatlanishlarini talab etadi. O'zbek ziyolisining ma'naviy-ma'rifiy madaniy shaxs sifatleri, uning o'zini-o'zi boshqara olishi, nazorat qilishi imkoniyatlarini kengaytirishga, o'zini yangitdan kashf etishga, talabalik davridagi to'rt yillik vaqtini rejalashtirishga va talabaning vaqtdan unumli foydalanishiga, uning faollashuviga olib keladi. Talabalarning reja asosidagi darslarga maqsadli qatnashishi, mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishi hamda bo'sh vaqtlarida ma'naviy-ma'rifiy, musiqiy tadbirlarga ishtirok etish va tashkil etishni amalga oshirishda bilim, saviya, malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday jarayonlar musiqiy tadbirlarga xos kuy-qo'shiqlarni mustaqil tarzda o'rganishga, ijro etishga chorlaydi. Bunday jarayonlar bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilarini o'zini-o'zi boshqarishi, mustaqil fikr-mulohaza yuritishi faoliyat faolligining oshishiga, yangiliklarni yaratishga, o'zbek ziyolisi sifatida takomillashuviga olib keladi. Talabalar tomonidan tayyorlanadigan tadbirlar ssenariysi, talabalarni darsda va darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini tashkil etishda, boshlang'ich tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi. Bunda talaba bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisi, mavzuga xos musiqalarni tanlashi, chala olishi, ijro eta olishi kabi imkoniyatlarining rivojlanishiga takomillashuviga zamin yaratadi. Bunday vazifalarni anglamoq, zimmaga olmoq, bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchisidan sabr-toqatni yoshlarga xos izlanishni, bilim va saviyani malaka hamda ichki va tashqi ma'naviyatni, madaniyatni, qat'iyatlikni, jur'at va chidamni talab etadi va tarbiyalaydi. Shu bilan birga tarixiy va zamonaviy tadbirlarda davrga xos sato, kamon, ud, nog'ora, surnay, karnay, tanbur, nay, g'ijjak, dutor, doira kabi sozlarni o'rganishga ishtiyoq ortadi. Milliy cholg'u sozlardan taralgan kuy-qo'shiqlar tadbirning ta'sirchanligini, mazmunini oshirishga yordam beradi. Bunda ijrochi talaba-yoshlarda eng avvalo, mas'uliyat hissi hushyorlik, aql-zakovat bilan fikr-mulohaza yuritish kabi ijobiy fazilatlar

shakllanadi. Soʻz qudratli qurol ammo, musiqa soʻzdan ham salobatli, teran hislarni, inson qalbi aql-idroki, tafakkuri orqali emotsional holatga keltiruvchi goh hazin, goh tantanavor, goh lirik, goh dramatik, tuygʻularni paydo qiladigan oʻta nozik, oʻta latif, oʻta kuchli taʼsir etadigan vositadir. Odam eshitish, koʻrish, his etish orqali taʼsirlanadi. Soʻz sanʼati, musiqa sanʼati, oʻzaro uzviy bogʻliq holatda yashashi bir-birini toʻldiradi. Mumtoz navolar avlodlarga ajdodlarimizdan buyuk meros va soʻnmas sarchashmalardir. Milliy gʻoya va istiqloq mafkurasi ruhida yosh avlodlarni tarbiyalash qadriyatlarimizni qadrlash, asrab-avaylash har bir boʻlajak musiqa madaniyati oʻqituvchisi oʻzbek ziyolisining burchi va vazifasiga aylanmogʻi davr talabidir.

Hozirgi kunda dolzarb muammolardan hisoblangan odam savdosi, ichkilikbozlik va chekishga qarshi – kurash maqsadida “Yoshlar chekishga qarshi”, “Ogoh boʻl!”, “Sogʻlom maʼnaviyat – sogʻlom turmush tarzi” kabi mavzularida qator tadbirlarni tashkil etish ham samarali amalga oshirilmoqda.

Prezident I.Karimov asarlarini va milliy maʼnaviy merosimiz boʻlmish buyuk allomalarimiz Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshgʻariy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiylarning asarlarini oʻrganish maqsadida tadbirlar tashkil etiladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilan “Kitobsevarlar”, “Yosh tabib”, “Yashil chiroq”, “Tabiat posbolar” kabi tanlovlar oʻtkazilmoqda.

Muhim sanalarga bagʻishlab oʻtkaziladigan tadbirlardan “Mustaqillik darslari”, “Oʻqituvchilar va murabbiylar kuni”, “Konstitusiya kuni” kabi tadbirlar ham oʻquvchilarda vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Maktabdagi maʼnaviy-maʼrifiy ishlar sifati va samaradorligini oshirish maqsadida maktab oʻqituvchilari uchun maʼnaviyat kunlarini tashkil etish ishlari ham yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Bunday oʻqishlar davomida oʻqituvchilar siyosiy savodxonliklarini oshiradilar, maʼnaviyatga doir yangiliklardan boxabar boʻladilar.

Mahalla bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan milliy bayramlar ham oʻquvchilar tarbiyasida amalga oshirilayotgan samarali ishlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari mahalla faollari bilan birgalikda oʻquvchilarning oilaviy sharoitini va ota-

onasiz bolalarga berilgan vasiylik masalalarini o'rganadilar.

Kuzatishlarimz va ma'naviy-ma'rifiy ish tashkilotchilari bilan o'tkazilgan suhbat natijasida ular faoliyatida bir qator kamchiliklar ham uchrashini aniqladik. Ular quyidagilardir:

Tashkil etilayotgan tadbirlarda sahnani, xonani bezash va jihozlash talab darajasida emas. Bu masalada ular moddiy ta'minot masalalarini asosiy sabab qilib ko'rsatdilar.

Tashkil etilayotgan tadbirlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari to'la inbatga olinmagan.

Maktabdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarga o'quvchilarning ota-onalari to'liq jalb etilmayapti. Bu esa o'z navbatida tadbirlar samaradorligiga ta'sir etadi.

Tadbirlarni tashkil etishda texnik vositalar etishmaslik holatlari ham uchraydi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda va tadbirlarda barcha o'quvchilar qamrab olinishi uchun keng qamrovli ishlarni amalga oshirish talab etiladi

Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun ma'naviy ma'rifiy sohadagi barcha ishlarni zamon talabiga mos ravishda innovasion tashkil etish talab etiladi.



## **II 606. Maktabda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariyalarini tuzish .**

### **2.1. Maktablarda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar jarayonini takomillashtirish**

Insonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan badiiy-estetik qadriyatlarning rivojlanishi ibtidoiy davrlarga borib taqalib, bu ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini belgilaydigan axloqiy qoidalar majmuida hamda tadbirlarning kelib chiqishida o'z aksini topadi.

Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining bayramlari ko'p, har biri qadimiy tarixga ega. Ajdodlarimiz yashagan eng qadimgi davrlarda ibtidoiy ovchilar o'rtasida ovchilar o'yinlari o'tkazilib, shu kunni o'zlaricha bayram qilishgan. Yuqorida ta'kidlaganimdek, qadimdanoq odamlar bir-birlarini xursand qilishga harakat qilishgan. Eng qadimgi odamlar qorong'u tushgach, olov yoqib uning atrofida o'yin-kulgi qilishni o'rganganlar, ya'ni toshlarni bir-biriga urib, ovoz chiqarib xuddi qo'shiq aytayotgandek sakrab harakat qilishgan. Keyinchalik esa terilarni kaltakka tortib, uni yog'och bilan urib xuddi do'mbira yasaganlar va chalib ko'ngillarini chog'lashgan.

Ayni shu davrda toshlarga o'yib ishlangan rasmlar ham paydo bo'lgan. Avval ular yerga hayvonlarning tasvirini solib undan zavq olganlar, so'ngra bu ishlari o'zlariga yoqib devorlarga, toshlarga chiza boshlaganlar. Qarang, hali so'zlashni bilmagan odamlarda musiqa bilan rasssomlikka bo'lgan ishtiyoq paydo bo'lgan. Demak, musiqa va tasviriy san'at hamisha o'zaro bog'liqligi bilan muhim ahamiyat kasb etgan.

Eng qadimgi odamlar biror katta hayvonni tutib olgan kunlarini o'zaro o'yin-kulgi qilib, go'yoki tonggacha bayram qilganlar. Mana shu harakatlar zaylida bayramlar vujudga kelgan. Aynan bayramlar orqali unitilib borgan va unitilyotgan an'analar tiklanadi, jumladan qo'shiqlar ham. Bunday qo'shiqlar asosan folklor san'ati orqali xalqqa tezroq yetib boradi. O'tkaziladigan barcha bayram va tadbirlarda ham musiqa va badiiy bezak asosiy o'rinda turgan.

Inson hayotida va shakllanishida bayramlar va ularning tarkibiy qismi bo'lgan an'ana, urf-odat va marosimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bayramlar ham milliy,

ham ma'naviy, ham ijtimoiy-siyosiy va madaniy-maishiy ahamiyatga ega bo'lib, musiqa san'ati alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda nishonlanadigan musiqa bayramlarining mohiyati muhim omil sifatida yoshlar tarbiyasining rivojida asqotadi. Boisi yangidan-yangi o'tkazilayotgan bayramlar, fundforumlar, shoular yoshlarning ko'ngil ochar tadbiri doirasiga kirib, ularda odob-axloq qoidalariga oid xususiyatlar mujassam bo'ladi. O'tkazilayotgan tadbirlar orqali yoshlar o'z akslarini ko'radilar hamda xulosa chiqaradilar. Biroq bunday tadbirlarni tayyorlashda yuqoridagi fikrlar mujassam bo'lishligi albatta ularning tashkilotchilariga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda men bir narsani ta'kidlamoqchiman, hozirgi yoshlarimizning barchasi ham bunday tadbirlarni xurmat qilishni bilishmaydi. Demoqchimanki, xurmat qilish tugul xatto tadbirga qiziqmaydilar. Ana shunday vaqtda "tashkilotchilar" faollikni qo'lga olib ommabop, qiziqarli tadbirlarni uyushtirishlari zarur.

Biz o'zaro fikrlashayotgan musiqa va tasviriy san'at yoshlar uchun hamisha qiziqarli bo'lib kelgan. Shuning o'zi tadbir uyushtirishda yengillik keltiradi. Har ikki san'at turidan kelib chiqqan holda qiziqarli ko'rik tanlovlar, shoular va intellektual o'yinlar tashkil etish mumkin. Biz qanday tadbir o'tkazmaylik, uning mazmun mohiyatida qadimiy urf-odatlarimiz, an'alarimiz, ota-bobolarimiz qoldirgan boy tarixiy merosimiz bosh g'oya bo'lishi zarur. Ushbu bayramlarda albatta musiqa san'atiga murojaat qilinadi, chunki bayramlar, mashshoqlar, musiqashunoslar, qo'shiqchilarsiz qiziqarli bo'lmaydi. Bizning talabalarimiz orasida iqtidorli yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi, aynan shuning o'zi tadbirlarimizga fayz beradi. Biz darslarni yangi pedagogik texnologiyalarga yondoshgan xolda tashkil etamiz. Xo'sh, nega o'tkazadigan tadbirlarimizda ham yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanmaymiz, balki shu bois ba'zi talabalarimiz tadbir tayyorlash jarayonidayoq zerikishni boshlasa kerak-da?! Demak, biz uyushtiradigan tadbirlarda ham pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan qo'llasak, ya'ni talabalarni guruhlariga bo'lib, o'z oralaridan sardor saylab, tadbir g'oyasini o'rtaga tashlab o'zaro munozara, muhokama usullarini qo'llash lozim. Bundan tashqari g'oya asosida kerak bo'ladigan musiqa, qo'shiq,

raqslarning majmuini topish, sahnani bezash ishlarini ham o‘zaro fikrlashishning jamoalarga bo‘lish yo‘li orqali amalga oshirish mumkin.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham pedagoglarning tashkilotchilik qobiliyatlariga keng o‘rin berilgani holda, shunday sharaflı vazifalarnı uddalashlari shartligi to‘g‘ri ko‘rsatib berilgan.

Umumta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir pedagoglarning asosiy vazifalari o‘quvchilarga dars jarayonida bilim berishdan iborat bo‘lsa, shu bilan birga musiqiy va maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etishdan ham iboratdir. Ta’lim maskanlarida o‘tkaziladigan tadbirlar va ularning tashkilotchilari bo‘lmish pedagoglar (musıqa o‘qıtuvchisi) ning asosiy maqsad vazifasi milliy qadriyatlarimizni teran anglagan xolda tashkil etishdan iboratdir.

Ta’lim yo‘nalishidagi tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi yoshlarni ko‘ngilochar dam oldiruvchi, bilimga chorlovchi hamda davlatimizda an’anaga aylangan ommaviy tadbirlar orqali qiziqtirib borish zarur. Umuman ta’lim muassasalarini tadbirlarsiz tasavvur ham qilib bo‘lmaydi.

O‘quvchilarning kuy va qo‘shiqlariga boy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida yoshlar ahloqan shakllantiriladi. Ko‘plab tadbirlarning Davlat miqyosida katta ommaviy bayram sifatida tantanali nishonlanishi hamda islom olamining nuroniy siymolari Ahmad Yassaviy, Imom al Buxoriy, Hakim at Termiziy jahon ilm-fani va milliy o‘zbek davlatchiligining buyuk darg`alari Imom al Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Mirzo Ulug`bek, Sohibqiron Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi qator namoyondalarning yubiley tantanalarini nishonlash mustaqilligimiz, istiqbolimiz sharofatidandir.

Ana’analar qadim-qadimdan insoniyat hayotida eng yaxshi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlodu-ajdodlari uchun yo‘l-yo‘riq darslari desak yanglishmagan bo‘lamiz. An’ana - xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan meros.

Tarixdan ma’lumki, ma’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan musiqiy madaniyatimiz, an’anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari, milliy o‘zbek estradasi

hamda folklor san'ati xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Qanday tadbir bo'lishidan qat'iy nazar, ularni musiqa bezagan. Hatto xalqimiz og'ir kunlarida ham qo'shiq va musiqadan najot tilagan, ularga hamisha hamroh bo'lgan.

Zero bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan otobobolarimizdan meros milliy musiqiy madaniyatimiz bevosita xalq tomonidan bunyod etilgan ommaviy bayram, marosim, to'ylar, tantanalar bilan bog'liqdir. Shuning uchun biz pedagoglar dars jarayonida ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda o'tkazilayotgan musiqiy tadbirlar orqali o'quvchi yoshlarni milliy tarbiyalash tizimini amalga oshirishimiz zarur.

Xulosa o'rnida umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya tizimining bosh g'oyasi ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratish mumkin emasligida bo'lishi shart. Demak, musiqiy tadbirlar pedagoglar uchun tarbiya vositasi sifatida ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtlari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, o'rta umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan ma'naviyat va ma'rifat xonalari olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijasi o'laroq vujudga kelishi kerak va jamoaning har bir a'zosi u erdan ma'naviy oziq ola bilishi lozim.

Ma'naviyat va ma'rifat xonalarini jihozlashda, asosan, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari (Bayroq, Gerb, Madhiya) va ularning to'liq tasnifi;

siyosiy-huquqiy qadriyatlarimiz (mamlakatimiz xaritasi, Konstitusiyamiz hamda milliy valyutamizni ifodalovchi lavhalar);

ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga oid Prezident Islom Karimovning asarlari hamda ularning qisqacha annotasiyasi;

milliy ma'naviyatimizning zabardast vakillari siymolari aks ettirilgan suratlar hamda ularning ta'sirchan fikrlaridan namunalar;

xalqimizning madaniy merosi, an'analari, udumlarini aks ettiruvchi ko'rgazmalar;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi nashrlari;  
«Ma'naviyat» nashriyotida chop etilgan asosiy kitoblar;  
«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi, shu fan hamda  
«Ma'naviyat asoslari», «Odobnoma»ga doir darslik va qo'llanmalar, asosiy gazeta  
va jurnallar taxlamlari»  
diniy-axloqiy kitoblar, ulardagi ma'naviy kamolotga undovchi fikrlardan  
namunalar.

Shuningdek, bu ishda o'ta muhim bo'lgan ikkita yangilikni joriy etishni tavsiya  
qilish mumkin:

Birinchisi, elshunos olim, tarix fanlari nomzodi Bilol Aminov tomonidan yozilgan  
«Hikmat - ibrat» risolasida keltirilgan «Tillo qushchalar parvozi» nomli hikmatlar  
yo'riqnomasiga binoan ma'naviyat va ma'rifat xonasining bir qismida devorning  
kata va kichik sathi loyiha asosida ishlanib, «Dono bo'lay desangiz» yoki «olim  
bo'lay desangiz» kabi so'zlar zaruriyatga ko'ra turli tillarda yozib qo'yiladi. Bu kata  
yozuvlar ostiga naqshli hoshiyalarda hikmatli so'zlardan 15-20 tasi yozib qo'yiladi.  
Hoshiyalar atrofida chiroyli qushlar parvozi, daraxtlarda o'tirgan holatlari gul yoki  
daraxtda sayrayotgan qushlar tasviri beriladi.

Ostiga 8-10 quticha o'rnatiladi. Ularga haftada ikki yoki uch marta «vizitka»  
shaklidagi turli hikmatlar yozilgan «tillo qushchalar» maketi solib qo'yiladi,  
ularning soni o'quvchilar soniga qarab ko'paytirilishi mumkin. Chiroyli naqshli  
qog'ozchalarda 2 tadan hikmat yozilgan bo'ladi. «Tillo qushchalar» nomini olgan  
bu qog'ozchalarni o'quvchilar o'z ixtiyorlari bilan olishlari va kelgusida davomini  
sabsizlik bilan kutishlari kerak.

Mutnlar maktab ma'naviyot va ma'rifat xonalarida tayyorlanadi va ko'paytiriladi.

Dastlab haftada bir marta, keyinchalik ikki-uch marta seanslar tashkil etish  
mumkin. Seanslarni kata tanaffus vaqtida yoki mashg'ulotlardan so'ng o'tkazsa  
bo'ladi. Seanslarda beriladigan ma'naviy oziq tabiiy ravishda ehtyojga aylanib  
ketishi va o'quvchilar e'tiborini tortishi uchun «chaqiruvchi xabar signallari»dan  
foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, sun'iy daraxt yoki kata tuvakdagi  
manzarali daraxt va gullarga, ma'lum vaqtlarda ular orasiga ustalik bilan

joylashtirishgan tovush chiqaruvchi karnaycha orqali magnitofondan sayroqi qushlar ovozi berib boriladi. Buni shunday tashkil etish kerakki, qush sayrashi o'rniga tanburda ijro etilgan mumtoz kuylardan berib borish ham mumkin. Bu lahzalarda o'quvchilar ham madaniy, ham ma'naviy oziq oladilar.

Ikkinchi yangilik – bu juda sodda, lekin g'oyatda mas'uliyatli ish, milliy ma'rifat tizimidagi muhim o'zgarishdir. Xalqimizning madaniy merosi, urf-odatlar, an'analari va adriyatlar tushirilgan videojamlanma tashkil etiladi. «Ming bor eshitgandan, bir bor ko'rgan afzal», - deydi dono xalqimiz.

«Odobnoma» hamda «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» darslarida faqat og'zaki bayon qilish uslubidan foydalanavermay, videojamlanma vositasida darslar tashkil etish juda katta samara beradi.

Ma'naviyat va ma'rifat xonalarini jihozlashda Davlat ramzlari va ular haqidagi ma'lumotlarni joylashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, davlatchiligimiz tarixining qaysi bir davrini olib qaramaylik, Vatan timsollari aziz va muqaddas sanalgan. Har bir davrda ham davlat ramzlari, timsollari shunchaki siyosatni amalga oshirish vositasi bo'libgina qolmay, balki juda kata ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat ham kasb etgan. Xalqimizning mustaqil va mustahkam davlat barpo etish g'oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, eng avvalo, davlat ramzlari va timsollarida o'z ifodasini topgan.

Shuning uchun ajdodlarimiz ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida ramzlar va timollarni juda e'zozlagan. Xalqimiz vakillari davlat timsollari uchun, hatto, o'z jonlarini ham fido etgan. Jangu jadallarda bayroqning qulashi yoki dushman qo'lga o'tishi mag'lubiyat bilan barobar turgan. Bu borada tariximizdan juda ko'p misollari keltirish mumkin. Masalan, 1221 yilning kuzida mo'g'ul bosqinchilari olti oylik qamaldan so'ng Xorazm poytaxti Gurganjga yopirilib kirganida, millatimizning buyuk qahramonlaridan biri Shayx Najmiddin Kubro shahar mudofaasiga rahnamolik qilib, tengsiz kurashda o'z ko'ksini dushman nayzasiga qalqon qiladi, yurt ozodligi yo'lida shahid bo'ladi. Aytishlaricha, Shayx o'limi oldidan mo'g'ul yalovbardoridan dushman bayrog'ini tortib olib, u bilan erga qadar kuchli ediki, mo'g'ullar keyinchalik Shayxning jonsiz qo'lidan bayroqlarini

tortib ololmagan va uning panjalarini kesib, o'z bayroqlarini olgan. Shayx Najmiddin Kubroning yurt ozodligi yo'lidagi bu jasorati qariyb sakkiz yuz yildirki, barcha avlodlarga ibrat bo'lib kelmoqda.

Sohibqiron Amir Temur davrida ham davlat bayrog'i juda kata ahamiyat kasb etgan. Shu sababli jangu-jadallarda davlat bayrog'ini Amir Temurning eng ishongan bahodir sipohiylari qo'riqlagan. Amir Temur «Tuzuklar»ida ta'kidlanishicha, dushman ustidan shijoat va mardlik ko'rsatib g'alaba qozongan amirlar va sipohiylar Temur davlatining timsollari – tug', nog'ora bilan mukofatlagan. Bu ham Sohobqiron saltanatida davlat ramzlari nechog'li baland turganligidan dalolatdir.

Shonli tariximizdan bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Kelajagi buyuk davlat barpo etish g'oyasi mustaqilligimizning ilk kunlaridayoq qabul qilingan davlatimiz ramzlari ham o'z ifodasini topgan. 1991 yilning 18 noyabrida qabul qilingan bayrog'imizda ham xalqimizning xohish-irodasi, aql-salohiyati, asrlar davomida so'nmgan g'ururi, kayfiyati aks etgan.

Davlatimiz bayrog'ida ifoda etilgan yangi chiqib kelayotgan yarim oy, yulduzlar, moviy, oq, yashil ranglar hamda qizil hoshiya chiziqlar xalqimiz g'ururi va kelajakka bo'lgan ishonchining ifodasidir. Respublikamiz miqyosida o'tkaziladigan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar Davlat bayrog'ini tantanali suratda ko'tarish, madhiyamizni kuylash iblan boshlanadi. Xalqimizning mustaqillik tufayli qaddini tiklagan ma'naviyati, g'ururi 1992 yilning 2 martida BMTga a'zo maalakatlar safida O'zbekiston bayrog'ining hilpirashi bilan bir necha bor o'sganligi hech kimga sir emas.

Davlat bayroqining huquqiy asosi 1991 yil 18 noyabrida qabul iqilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun bilan mustahkamlanib, bu hujjatda bayrog'imizning shakl-shamoyili, undan foydalanishining yo'l-yo'riqlari puxta va aniq ko'rsatib berildi.

### ***Musiqiy tugaraklarni tashkil qilish va uni amalga oshirish ishlari***

Maktabda sinfdan tashqari tugarak ishlarini amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni ongli ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashda qar tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy-tugaraklarni amalga oshirish metodikasi fanining predmeti, bo'lajak

tarbiyachi-o'qituvchilarga kelajak avlodni ma'naviy jixatdan yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san'atining qirralari, shakl va yo'llari to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka xosil qilish qaqida baxs yuritadi.

Musiqiy tugaraklarni tashkil qilish va uni amalga oshirish metodikasi ijtimoiy fan bo'lib, milliy ong va istiqloq mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsad va vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilar, tarbiyachilar, to'garak raxbarlari tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni o'rgata bilish;

tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora tadbirlarini ko'ra bilish;

ilg'or tajribalarni kuzatib, taxlil qilib undan ijodiy foydalanish;

tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarni ruxiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi va takomillashtirishi;

tarbiyaviy tadbirlarni samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarbiyaviy ravishda boyitib borishi lozim.

### ***Musiqiy tugaraklarni tashkil etish va uni amalga oshirish uslubiyati va uning asosiy manbalari***

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish va uni amalga oshirishning uslubiy asoslari maktabda sinfdan tashkari musika tugaraklarini tashkil etish, o'zbek milliy urf-odatlari, xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklar, xalq arboblari, O'rta Osiyo mutaffakkir, ma'rifatparvar, olim pedogolarining boy merosidir.

Ayniqsa komil inson tarbiyasiga oid ilmiy-metodik ommaviy saqna ko'rinishlar, shuningdek prezidentimiz I. Karimovning bir qator asarlari yosh avlodni tarbiyalashga oid g'oyalari tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish tizimining metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish metodikasining asosiy manbalari:

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

O'zbek milliy urf-odatlari.

O'zbekiston Respublikasining ramzi, madxiyasi, bayrog'i, konstitutsiyasi.



Mustaqillik kuni, Navro'z, bilimlar kuni, o'qituvchilar kuni, Alifbe bayrami, Gul bayrami, Yosh xadisshunoslar, san'at xaftaligi, qar xil ko'rik-tanlovlar, yil sanalari va boshqalar

#### 5. Uzbekiston Respublikasidagi maktablarning ilgor tajribalari.

##### *Musiqiy tugaraklarni tashkil etish va uni amalga oshirish ishlari tizimi*

Musiqiy tugaraklarni tashkil qilish va uni amalga oshirishning asosiy tizimi quyidagilar bo'lishi lozim:

Maktabda sinfdan tashqari ommaviy tadbirlarni amalga oshirish uchun avvalam bor to'garak ishlarini keng yo'lga qo'yish muxim ahamiyat kasb etadi. To'garak o'quvchining badiiy-estetik didini ma'naviyatini, axloqini Vatanga, yurtga bo'lgan meqr-muxabbatini, meqnatga bilim olishga bo'lgan intilishini, qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bolalar bog'chalari, maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarida sinfdan tashqari to'garak ishlarini tuzish uchun avvalam bor, joylarda to'garak ishlarini tashkil etish uchun raxbar o'ziga yetarli shart-sharoitlarni yaratib olishi lozim. Mashg'ulotlarni tashkil etish uchun maxsus xona, xona uchun jixozlar yoki majlislar zalidan foydalanish mumkin. Xonada milliy cholg'u asboblardan (rubob, doira, g'ijjak va boshqalar), texnik vositalardan – mikrafon, grammafon, plastika va musiqa, qo'shiq yozilgan va boshqa tadbirlarni magnit lentalarini, disketlar, albatta konsert, saxna bezaklari bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan sharoitlar yaratilgandan so'ng, e'lon orqali talabalarni tanlab olish va ishni boshlashi lozim.

Musiqiy ommaviy tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda bosh omil kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda milliy g'urur, milliy, iftiqor, muloqot odobi, o'zbek san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishdir.

Badiiy havaskorlik to'garaklari raqbarlari, tashkilotchilari quyidagilarga amal qilishlari lozim:

to'garak raqbari qavaskor o'quvchi talabalar bilan birinchi uchrashuvdanoq ularning qarakterini sinchiklab o'rganishi musiqa madaniyati darajasi va psixologik xususiyatlarini bilib olishda muqim;

bayram tadbirlarni tashkillashtirish va sifatli, zamonaviy qilib o'tkazishga o'rgatish;

saxnaviy ko'rinishlarda turli badiiy, tarbiyaviy, musiqiy, ma'naviy estetik zavq bag'ishlovchi asarlarda rollar ijro etishni joriy qilish va o'tkazib turish;

maxalliy milliy musiqa an'analariga xos musiqa janrlaridan:

folklor qo'shiqlari, doston, katta ashula, maqom, mumtoz musiqa san'atimiz, alla, lapar, bolalar qo'shiqlari va xalq kuylaridan iborat konsert dasturlari tuzish va o'tkazish;

milliy estrada va milliy raqs san'atimiz sirlari bilan tanishtirish;

marxum san'atkorlarimiz qayotdan boqabar qilib borish, ular yozib qoldirgan asarlarini qamisha yodda tutish va asrash maqsadida shu san'atkorlar ijodiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazib turish;

kichik maqom ansambli tuzish, unga iqtidorli o'quvchi-talabalarni jalb etish, ularga qo'shiqlarni, kuylarni o'rgatib konsertlarga olib chiqish;

to'garak qatnashchilarini maxalladagi oqsoqollar, onajonlar umidlaridan baxramand etish, ularning muammolarini xal etishga ko'maklashish; maqalladagi nogiron va boquvchisini yo'qotgan insonlarga yordam tariqasida xayriya konsertlarini o'tkazishni o'rganib borish va tashkillashtirish;

milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimiz qaqida ularning ma'naviy-estetik tarbiyaviy axamiyati qaqida tushunchalar olib borish marosimlarni o'zbekona ruxda, ixcham o'tkazish chora-tadbirlarini maqalla fuqarolari bilan ko'rib chiqish va saxna ko'rinishlari orqali tomoshabinlarga marosimlarni qulay, ixcham, foydali tomonlarini namoyish qilib berishni yo'lga qo'yish;

Maktabda qo'g'irchoq teatrini tuzish va uni yo'lga qo'yish:

Yuqoridagi barcha tadbirlarda qatnashayotgan o'quvchi – talaba yoshlarni moddiy ma'naviy rag'batlantirib borish, badiiy xavaskorlik to'garaging faoliyatini yanada takomillashtirish, o'quvchi talabalarning ma'naviy-estetik kamolotga erishishiga ko'maklashish to'garak raxbarining ma'suliyatli ishiga kiradi.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan barcha tarbiyaviy tadbirlarni tashkillashtirish va ko'tarinki ruxda o'tkazish to'garak ishlariga iqtidorli talaba o'quvchi yoshlarni jalb

etish, saxnaviy ko‘rinishlar orqali ularni ma’naviy-estetik tarbiyalash ularga davr bilan qamoqang bo‘lgan asarlarni kuy va qo‘shiqlarni, raqslarni o‘rgatish drama komediyali saxnaviy ko‘rinishlardan baxramand etishdek ma’suliyatli va sharaflil ishlar zamon talabiga mos va zarur yumushlardir.

### ***Badiiy havoskorlik tugaragi ishlarini tashkil qilish uslubiyati .***

O‘quvchilarni qo‘shiq aytishga tayyorlash jarayonida qilinadigan ishlar qam ovoz sozlash tarbiyasi turkumiga kiradi. Ma’lumki, qar bir mashg‘ulot xonandalarning ovoz qo‘shiq aytishiga tayyorlash va oxang eshitish qobiliyatini ko‘zda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi.

Bu mashg‘ulot 10-15 minut va undan ko‘p qam davom etadi. Ovozni qo‘shiq aytishga tayyorlash mashqlari ma’lum tartibda o‘tkazilib, ovozni jarangdorlikka erishiladi. Natijada o‘quvchilarning ovoz imkoniyatlari mustaxkamlanadi.

O‘quvchilarni qo‘shiq aytishga tayyorlashning turli uslublari quyidagilardan iborat: -mashqlarni butun gurux bilan yoki aloxida ovoz turlari bo‘yicha kichik guruxlar bilan ishlash;

-ma’lum unli tovushlar, bo‘g‘in va so‘zlar yordamida ish olib borish;

-turli tovush yo‘nalishlari uslubida ish olib borish;

-turli dinamikaga xos uslubda ish olib borish;

-ayrim xalq qo‘shiqlari bo‘lakchalaridan foydalanib ishlash;

-diapazonning ma’lum qismida kengaytirib ish olib borish;

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlarini oddiydan murakkabga tomon olib borish tartibida o‘tkaziladi. Badiiy xavaskorlik to‘garaklari, madaniyat uylari va saroylari qamda o‘quv yurtlari qoshida tuziladi.

### ***Badiiy havaskorlik tugaragi tuzishning tashkiliy bosqichi***

To‘garaklarni tuzish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. To‘garak tuzish dastlab tashkiliy ishlardan boshlanadi va u o‘z doirasiga qator muammolarni qamrab oladi. Bular:

to‘garak tuzishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni dastlabki muxokamadan o‘tkazish;

to‘garakka qatnashuvchilarni jalb qilish va uning tarkibini to‘ldirish;

yangi tuzilgan to'garak bilan xabarlarining dastlabki uchrashuvini tashkil qilish; to'garakka kiruvchilarning ovoz va musiqiy uquvlarini tekshirib chiqish. Quyidagi muammolarning qar birini aloxida-aloxida ko'rib chiqamiz.

### ***Tugarak tuzish masalalarining dastlabki muhokamasi***

Badiiy xavaskorlik to'garaklarini tuzish ishi to'garak raqbarining to'garak tashkil etishi bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar maxsus yig'ilishda muxokama qilinishi maqsadga muvofiq va samaraliroqdir. Bunday maxsus yig'ilishga to'garak tashkil etishdan manfaatdor bo'lgan barcha shaxslar taklif etadi.

Yig'ilishda tashkil etilajak to'garakning badiiy ijrochilik yo'nalishi, moddiy bazasi, mashg'ulotlarining tartibi kabi masalalar muxokama qilinishi kerak. Shu yig'ilishda to'garakka qatnashuvchilarni jalb etish yo'llari belgilanadi va tasdiqlanadi. Badiiy xavaskorlik to'garagi qatnashuvchilarni jalb etishni aniq bir shaxsga yuklash lozim. Mazkur yig'ilishning o'zida badiiy xavaskorlik to'garagining moddiy bazasini yaratish va to'liq tarkibini tashkil etish ishlariga ketadigan muddatini aniq belgilab olish talab qilinadi.

### ***Tugarak ishtirokchilarini jalb etish va ularning to'liq tarkibini belgilashning ba'zi masalalari***

Xavaskorlik to'garagi qatnashchilarini jalb etish muxim masalalardan biridir. Bu ishning muvaffaqiyatli tashkil etilishi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishning garovidir.

Dastlab ishni badiiy xavaskorlik to'garagini yaratish g'oyasini ommalashtirish niyatida olib boriladigan tashviqot yuritishdan boshlash lozim. O'sha tashkilotning barcha sexrlari va bilimlarida ansambl tashkil qilinayotganligi to'g'risida xabar yozilgan chiroyli e'lonlar yozilishi lozim.

Bundan tashqari maktablardan qam unumli foydalanish lozim. Ularda beriladigan maqolalarda xalq qayotiga xavaskorlik san'atining aqamiyati tobora oshib borayotgani qamda shu tashkilot xuzurida tuzilayotgan to'garak va badiiy xavaskorlik to'garaklarining tuzilishida barcha sex va bo'limlarda qam olish paytlarida maxalliy jamoat tashkilotlarining vakillari va boshliqlari bilan o'tkaziladigan suxbatlar qam katta yordam berdi. Suxbatlarda amalga

oshirilayotgan tadbirning mohiyati tushuntirilib, to'garakka yozilish to'g'risidagi tashviqot yuritiladi.

To'garakka yangi qatnashuvchilarni jalb etishga doimo g'amxo'rlik qilib turish shuning uchun qam zarurki, ansamblning jamoasi birdaniga tarkib topa olmaydi. Yozilganlar orasida to'garak ishiga doimiy va faol qatnashishda xavaskorlik qiladiganlar qam topilib turadi. Ular mashg'ulotlarga muntazam qatnashmaydilar va oqibatda ansamblidan chiqib ketadilar.

Ansamblar ish sharoitlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, kadrlar ko'nimsizligi maxalliy jamoat tashkilotlari xodimlarining loqaydsizligi bilan sodir bo'ladi. Xavaskorlik ansamblari kadrlarining ko'nimsizligi o'sha ansambl ishlab turgan muassasa ishchilari tarkibining o'zgarib turishi natijasida xam sodir bo'ladi. Bunday xollar o'quv yurtlari xuzuridagi ansamblarida tez-tez sodir bo'lib turadi.

#### ***Badiiy havaskorlik tugaraklari ishlarida tashkiliy masalalar***

Badiiy xavaskorlik to'garaklari faoliyatida tashkiliy ishlarning to'g'ri olib borilishi g'oyatda muxim aqamiyatga egadir. Tashkiliy jiqlar to'garakning butun faoliyatini ushlab turuvchi poydevor vazifasini o'taydi. To'garak ishining muvaffaqiyatli borishi tashkiliy jiqlarning qanchalik mohirona uyg'unlashtirganligiga bog'liqdir. Tashkiliy ishlarning g'oyatda keng bo'lib, u ashula va raqs to'garaklarining yaratilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni qamrab oladi. Ulardan eng muximlari quyidagilar: moddiy baza masalalari, ashula va raqs to'garaklarining jamoada o'z o'zini boshqarish uslubi va vazifalari.

#### ***Badiiy havaskorlik tugaraklarining moddiy bazasi***

Moddiy baza to'garakning muntazam ishlashini ta'minlab turuvchi asos bo'lib xizmat qiladi. U to'garak mashg'ulotlari uchun ajratilgan xonalardan, musiqa asboblardan, notalar kutubxonasidan, konsert uyushtirganda kiyiladigan kiyim-kechaklardan tashkil topgan.

#### ***Mashg'ulotlar honalari.***

To'garak mashg'ulot o'tkazadigan xonalar bir qator talablarga javob berishi lozim. Mashg'ulot xonalari o'zining kengligi va balandligi jixatdan to'garak

qatnashchilarining soniga monand kelishi kerak. Chunki, toza, qavo yetarli bo'lishi to'garak mashg'ulotlarining yaxshi o'tishiga sharoit yaratadi. To'garakka ajratilgan xonalarni qulay va yetarli yoritilgan bo'lishi talab qilinadi.

### ***Musiqacha cholg'ulari.***

To'garak ishida musiqacha asboblari g'oyatda muxim aqamiyat kasb etadi. Xozirga qadar xavaskorlik ishlari taraqqiyoti natijalari shuni ko'rsatadiki, to'garak o'rta xisobda 45 ishtirokchidan, ya'ni musiqachi, xonanda va raqqosalardan tashkil topishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday to'garakning musiqacha asboblari asosan quyidagilar bo'lishi mumkin:

<i>Doira</i>	<i>2ta</i>	<i>afg'on rubobi</i>	<i>1ta</i>
<i>Nay</i>	<i>1ta</i>	<i>qo'shnay</i>	<i>1ta</i>
<i>Chang</i>	<i>1ta</i>	<i>dutor</i>	<i>1ta</i>
<i>G'ijjak</i>	<i>1ta</i>	<i>tanbur</i>	<i>1ta</i>
<i>Qashqar rubobi</i>	<i>2ta</i>	<i>nog'ora</i>	<i>2ta</i>

Shunday qilib, cholg'ular tarkibi 10-12ta kishidan iborat bo'ladi.

### ***Konsert kiyim – kechaklari***

O'zbek xalqining kiyim – kechaklari butun bir fan soqasini tashkil qilib aloqida mutaqaassislarni ilmiy izlanishlarini talab qiladi. Konsert kiyim-kechaklarida xalqimiz an'anasiga ijobiy munosabatda bo'lib ijrochilik vazifalari taqazo etadigan viloyatlararo farqlardan unumli foydalanishni talab qiladi. Qar bir raqsning o'z kiyim-kechagi bo'ladi. Bosh masala shundaki, yagona shakl to'garakning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi. Agar to'garakda turli tuman kiyim-kechaklarga zeb bergan bo'lsa, tomashabinlarning butun diqqati ijroning asl moxiyatini tushunishga emas, balki kiyim-kechaklar jilvasi bilan alaxsib qoladi. To'garak yagona shaklda chiqqanda esa, tomashabin diqqati chalg'amaydi.

## **2.2. Innovatsion texnologiyalarini qo`llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariyalaridan namunalari**

### **“Alifbe bayrami” senariysi**

16 01 2012

Zal bayramona ruhda bezatilgan:

Zalga 4-“A” sinf o`quvchisi Akromxo`jayeva Kamola kirib kelib, bayram dasturini boshlaydi.

Osmon uzra kamalak

Eshiting qiziq ertak

Bor ekan bir majmua

Sergeli tumanida

Rahbari Xamit ota –

Bag`ri keng, ko`ngli toza

Qo`l ostida ishlarkan

Ustozlar, murabbiylar

Tinmay mehnat qilarkan

Majmuada barchalar.

Shu majmua qoshida –

Gavxar opa bag`rida

O`qir quvnoq o`g`il-qiz

Misoli ko`kda yulduz.

A`lo o`qish, yozishga

Sarf etarlar bor kuchin.

Ustozlari mehnatin

Oqlash ularning burchi.

Bugun bayram, tantana

“Savodxonlik” kechasi

Olgan bilim, o`gitin

Ko`rsatarlar barchasi.

To'g'ri o'qish, yozishni,  
Ham qo'shish, ayirishni,  
Sher aytish va kuylashni,  
Intizomli bo'lishni  
O'rgandilar uch oyda  
Har bir qiz-o'g'il bola.  
Ushbu kun ularning barchasi  
Mo'jiza yaratarlar,  
Barchani o'zlariga  
Lol qilib qaratarlar.

Azizlar, kelinglar sizlarning qarsaklaringiz ostida majmuamizning, ya'ni, bizning davomchilarimiz bo'lgan – 1-“A” sinfining “Savodxonlik” bayramiga taklif qilsak.

- Marhamat!

Qarsaklar ostida 1-“A” sinf o'quvchilari zalga kirib kelib,  
o'z joylarini egallaydilar.

Xonzoda

- Bugun qarang majmuamiz,

Bezanibdi yana ham go'zal.

Bugun bayram, katta tantana,

Barchamizga to'y shodiyona.

- Zarina

- Bugun do'stlar savodxonlik bayrami

Shodlik bilan o'tsin elim har dami.

O'zbek elim – bolajon el, tanti el,

Xizmat qilay to'ylarida bog'lab bel.

- Xonzoda

Bugun esa maktabda

Juda katta tantana

Bilimini namoyish



Qiladi har bir bola.

- Zarina

Ustozlar o'g'itin,

Dilimizga joyladik.

Dilda hayajon bilan,

Bayramimizni boshladik.

Musiqa yangrab, qarsaklar chalinadi.

- Zarina

- Katta-kichik barchangizga,

Yo'llagaymiz biz salom,

Ta'zim sizga, hurmat sizga,

Deymiz salom-assalom.

- Xonzoda

- Xush kelibsiz ey aziz,

O'qituvchi, ustozlar.

Onajon-otajonlar,

Avvalo hammangizga

Assalomu-alaykum!

- Zarina

Ijzatingiz bilan bugungi bayramimizni "ochiq" deb e'lon qilamiz

Madhiya yangraydi.

Kichik guruh tarbiyalanuvchisi Fayzulloh va Sarvinoz she'r aytadilar:

- Fayzulloh

- Islom bobom ta'kidlab,

Yilni bizga atadi.

Sog' bo'lsin deb nabiram,

Hammamizni ardoqladi.

Sarvinoz

- Yangi yilda barchamizga

Vazifalar juda ko'p.

Xursand etib hammani

Yutuqlar bo'lar mo'l-ko'l.

So'ngra beshta o'quvchi chiqib, she'r aytishadi:

- Mirjahon

Alifbeni tugatdim

Endi o'qiy olaman

So'zlarni qo'shib birga

Jumla to'qiy olaman.

- Malika

Harflarni tanidim,

Yetib oldim siriga

So'zlar tuzsa bo'larkan

Birin qo'shib-biriga.

- Shoxjahon

- Qancha unli, undosh bor,

Hammasini bilaman,

To'plab bilim, zehnimni,

Sizni xursand qilaman

- Sarvinoz

- A'lo o'qish vazifam

Tolmayman o'rganishdan.

Olimlar ham ilmni

Boshlagan "Alifbe"dan.

- Mohinur

- Rahmat aziz ustozim,

Mehringiz dilimizda

Yoshlikda olgan bilim

Nur sochar yo'limizda

Ashula va raqs

To'rtta boshqa o'quvchilar chiqib, yana she'r aytadilar.

- Shaxzod

- O' stiringiz onajon,  
Oq yuvib, oppoq tarab,  
Sho'x bulbulday sayrayman,  
Zavq bilan yayrab, yayrab.

Nodira

- Ichga sig'mas quvonchim  
Maktabim bag'rin ochdi  
Alifbejon kitobim,  
Oftob kabi nur sochdi.

- Firdavs

- Alifboni yod oldim,  
Harflar tilsim go'yo.  
Ona, bola, Vatan, non,  
Mazmuni Ungsiz dunyo.

- Moxibonu

- Murg'ak qalbim angladi,  
Bitmas ustoz she'rini.  
Yuragimda joyladim,  
Vatan. Ona mehrini.

- Xonzoda

- Ma'noli shirin so'zi  
Oftobday nurli yuzi  
Bilmaysizmi bolalar  
Qani "Alifbe" o'zi?

- Zarina

- Do'stlar! Qani endi davramizga kimni chorlaymiz?

- Hamma

- Alifbeni

- Bexzod

- Kitoblarning bobosi,  
Yo'l boshlovchi donosi.  
Har yurakka nur ziyo  
Taratish muddaosi  
"Ilm ista" – xitobi  
Bu – "Alifbe" kitobi.

- Malika

- U borki, yo'llar ravon,  
Oshamiz bir-bir davon.  
Borayapmiz mardona  
Bilimlar yurti tomon  
"Ilm ista" xitobi.  
Bu – "Alifbe" kitobi!

- O'quvchilar:

- Alifbejon, kel tezroq,  
Do'stlaring senga mushtoq  
Alifbe kitobi:  
Salom aziz mehmonlar,  
Shirin-shakar bolalar.  
Bugun bayram tantana,  
"Alifbe" to'yi bilan sizlarni tabriklayman.

- Izzatilla

- Bugun sizga ko'rsataylik,  
Maktabning bor ma'nosini.  
Harflarni jamlovchi,  
Alifbe muddaosini.

- Go'zal

Chindan qadrdon bo'lding,  
Sen – Alifbe kitobim.  
Ko'zga go'yo nur bo'lding,

Charaqlagan oftobim!

- Hamma: Senga dildan tashakkur

- Alifbe kitobi:

- Aziz bolajonlar! Siz mendan nimalarni o'rgandingiz?

- Imron

- Eng avvalo assalomni,

Tildan chiqqan kalomni

Joyni bilib so'zlashni

Yaxshilikni ko'zlashni.

- Maftuna

- Dunyoning yorug'ligini

Ulug'ekan oftobni

Vatanning qutlug'ligini

Aziz ekan kitobni.

- Alifbe kitobi

- Balli ey dili oqlar,

Fan bilimga chaqqonlar

Minnatdorman sizlardan

Baxtli o'g'il-qizlardan.

- Xonzoda:

- Birin-ketin tikib ko'z,

- Harflar aytmoq istar so'z!

- "A"-Zarina

- Assalom avvalo aziz jonalon,

Alla aytib katta qilgan onajon!

- "B" – Xonzoda

- Buyuk bobosi bor boshida bu kun,

Butun el taniydi yurtimni bugun!

- "D" – Mirjahon

- Dildan deyman doim jon-tanim,

O'zbekiston – mening Vatanim!

“E” – X.Shoxrux

- Elim deb, yurtim deb yashayman har vaqt,

El-yurt baxti - mening baxtimdir abad.

- “F” – Sarvinoz

- Fido bo'lsin mayli bu jonim,

Faqat omon bo'lsin ona Vatanim.

- “G” – Shoxjahon

- Gulla go'zal, gulgin diyorim,

Gul maskanim – O'zbekistonim!

- “H” – J.Malika

- Hayotim, hur o'lkam baxtimdir faqat

Hur o'lkam baxti deb yashayman har vaqt

- “I” – Izzat

- Ismingizdir Islom bobojon,

Istiqlolni bergan har qachon.

- “J” – Maftuna

- Jaranglaydi jajji sho'x so'zim,

Jahon tanir bugun ovozim.

- “K” – M.Shoxrux

- Kamolingni kulib kuylayman,

Yurtim jamolingga boqib to'ymayman.

- “L” – Nodira

- Lolaman lov-lov yonar yuragim.

Xalqqa mehnat orzu, tilagim.

- “M” – Muhammadiyor

- Mana men mardona mashxur makonman,

Siz tug'ilib o'sgan – O'zbekistonman.

- “N” – Mohimbonu

- Non aziz, non bilan hayotdir inson,

Non ushog'in ko'zga surgin bolajon.

- "O" – Imron

- Ona yurt onajon – O'zbekistonim

Ona kabi aziz – jonu-jahonim.

- "Y" – Mohinur

- Yillar o'tib, yillar kelibdi,

Yurtim 18 yoshga to'libdi.

- "P" – Diyor

- Poytaxtim – Toshkentim, porlagin yurtim,

Paxtaga kon makon – O'zbekistonim!

- "Q" – Malika

- Qo'limda qalamim she'r bitay sizga,

Onajon doston kam ta'rifingizda.

"R" – Said

- Roxatbaxsh yurt bir jannatmakon

Rost so'zlasam bu – O'zbekiston

- "S" – Firdavs

- Salom sevimgim, serquyosh diyor

Senga qo'lda, so'zla aytaman alyor

"T" – Angbin

- To'yingga to'yona tilda dostonim

2200 yoshing qutlug' Toshkentim.

- "U" – Behzod

- Unutmang, ustozim har bir so'zingiz

Umrbod yodimda ulkan mehringiz.

- "V" – Komila

- Vatanim, volidam va tanda jonim

Vatan ishq bilan o'tar har onim.

- "X" – Samandar

- Xalqimning ovozi baland har onda

Xumo qushi shod uchar moviy osmonda.

- “Z” – Dilafruz

- Zamonim zo’r, zorim yo’q eldan,  
Zamonamni men kuylayman dildan.

- “O” – Shorustam

- O’zbekman, o’z tamg’am, bayrog’im bor  
O’zbek madhiyasi tillarda alyor.

- “G” – Nigora

- Guruhla g’oliblik bayrog’i qo’lda,  
Har elimning madhi jaranglar tilda.

- “Ch” – Rabbimqul

- Chamanning chiroyli guli o’zingiz  
Ustozim! Duru-gavhar har bir so’zingiz.

- “Sh” – Sherzod

- Shodman, shamol kabi shoshaman har on,  
Bilimlar maskani maktabim tomon.

“Ng” – Go’zal

- Kuylang, o’ynang, quvnang, shodlaning bu kun,  
Bizni qutlang Alifbeni tugatdik bugun.

- “ ” “ tutuq belgisi – Muhammadiyor

- Kimning kelsa bilgisi,  
Menman tutuq belgisi.

- Komila

- Do’st qadrdon alifbo,  
Seni o’qib yayradik .

Sendagi harflarni,  
Dilimizga joyladik.

- Muhammadiyor

- Sensan mening birinchi

Buyuk ona kitobim,



G'urur bo'lgan qalbimda

Jonajonim oftobim.

- "Alifbe" – kitobi

- Bolajonlar siz mendan

Ko'p narsalar bilibsiz

Bilim to'la konimdan

Duru-gavhar teribsiz.

Fursat yetdi siz bilan

Hayrlashib ketaman.

Do'stim o'qish kitobni

Endi taklif etaman.

- Bolalar:

- Hayr "Alifbe"jonim,

Rahmat yo'llab qolamiz,

Omon bo'lgin biz senga

Oq yo'l tilab qolamiz.

- "O'qish" kitobi musiqa sadolari ostida kirib keladi:

- Salom aziz bolalar

Chiroyli gul bolalar

Menchi "O'qish" kitobman

Nur sochgan oy-oftobman.

Yoningizga keldim men

Kerakligim bildim men.

- Bolalar:

- Kitobim xush kelding sen

Dilni xushnud etding sen.

- "O'qish" kitobi:

- Bolajonlar yuzimni

Iflos qilib qo'ymangiz.

Yirtib zar varag'imni,

Ko'p uyatga qolmangiz/

- Bolalar:

- Kitobim bo'l xotirjam

Ozor bermaymiz hech ham.

- "O'qish" kitobi:

- Men bir chuqur quduqman,

Limmo-limdir suvlarim.

Qonib-qonib ichsangiz,

Bahoingiz – "5" do'stlarim!

- Angbin

- Ey kitobjon tashnamiz,

Tinchlik zilol suvingga

Seni kutar chanqoq dil

Oq poyondozi yo'lingga.

- "O'qish" kitobi:

- Shunchaki o'qish

Qilmas kifoya

Diqqating jamlab,

O'qigin uqib.

Har yer, har joydan

O'qima cho'qib.

- Hamma:

- Xo'p bo'ladi kitobim,

Xotirjam bo'l oftobim.

- Xonzoda

- Rahmat! Aziz mehmonlar!

- Mana o'zingiz guvohi bo'lganingizdek, biz hozirgina "O'qish" kitobi bilan ham tanishib, do'stlashib oldik.

Zarina

- Endi navbat bayramimizning badiiy qismiga!

Marhamat, tinglab, tomosha qiling.

- X. Shoxrux

- Bo'cha-yu, maktab bizda,

Kamyobdir o'lkamizda.

O'qir quvnoq o'g'il-qiz,

Misoli ko'kda yulduz.

- Dilafruz

- Barchalari idrokli,

Kelajakda yaroqli

Muxandis, olim bo'lar,

Harflarni zo'r bilar.

- Sherzod

- Bugun bayram marhamat,

Hursand qilamiz faqat.

Tabrik she'rlar o'qiymiz,

Dilga mehr ulaymiz.

- Nigora

- Tantana ochiq do'stlar,

Yo'qolsin kam-u-ko'stlar.

Navbat soz, muziqaga

Raqsga tushaylik birga

- Bayram dasturi ketadi

Xonzoda

- Hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar – bizlarga ilk bor qo'limizga qalam olib, 3 oy mobaynida chaqqonlik va bilimdonlik bilan o'qish va yozishni o'rgatgan ustozlarga va

- Zarina

- Bizga shunday zo'r sharoitlarni muhayyo qilib bergan, ustozlarimizning sarboni Xamit otajonomizga o'z dil so'zlarimizni she'riy misralar orqali izhor etmoqchimiz.

- Xonzoda  
- Marhamat tinglang, aziz ustozlar:

- Said –direktorga:

- Bog'chani maktab qilgan,

Ish deya kuyib-pishgan

Bag'ri keng, ko'ngli toza,

Hammaga bo'lar doda.

Doim bo'ling salomat

Sizga tilaymiz omad,

Direktorga ming rahmat!

- Mohinur - zavuchga

- Maktab – bog'cha – majmua,

Sizsiz unda volida

Tinim nima bilmaysiz,

Erta-yu - kech tinmaysiz.

Bo'ling doim salomat

Ilmiy mudirga rahmat!

- I.Malika – Gavhar opaga

- Ustoz so'zi ulug' nom,

Sizga doim ehtirom

Onamizday bo'lasiz,

To'g'ri yo'lga boshlaysiz.

Dars qilmasak koyiysiz,

Lekin yaxshi ko'rasiz.

Gavhar opa ming rahmat

Siz sevgan gul marhamat!

- Rabbimqul – Hilola opaga

- Hilola opam tarbiyachi,

Har sohani o'rgatuvchi

Kirib xonaga asta,

So'zlaydilar orasta.

Dono, zukko bo'ling deb,

Epchil, tanho bo'ling deb,

Hilola opa rahmat

Gulim sizga marhamat!

- Komila – Ruxsora opaga

- Idish-tovoq chinniday,

Xo'p go'zal hanaringiz.

Biz jajji bolalarga

Pokizadir mehringiz.

Ruxsora opa rahmat,

Gulim sizga marhamat!

- Xonzoda

- “Savodxonlik” bayrami

Tugab borar shu onda

Dil so'zlari aytdik biz,

Rahmat deymiz hammaga!

- Zarina

- Ona yurtim omon bo'l,

Shudir yolg'iz tilagim

Sen uchun, Vatan uchun,

Yonib yashar yuragim!

- Xonzoda

- Xayr aziz mehmonlar,

Ota-ona ustozlar,

Barchangizga ming rahmat,

Bo'ling doim salomat!

Tumanimda ko'p maktab,

Yana ko'pdir bog'chalar.

Lekin yakka-yagona,

Hamma:

Budir bizning – majmua!

E'tiboringiz uchun katta rahmat, tabrik uchun so'z majmuamiz rahbari, biz uchun aziz bo'lgan – Xamit Axmat dodamizga

TAMOM!

***O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tadbir senariysi***

1 boshlovchi:

Azaldan ustozni ulug'lar xalqim,

Ularga ezgulik tilamoq haqqim.

Bunchala buyuksiz, bunchalar zukko,

Umringiz mo'jiza-yetmaydi aqlim.

2 boshlovchi:

Ustozni e'zozlash azaliy odat,

Shogirdning kamoli ustoz uchun baxt.

Millionlar qalbida so'nmas mayoqsiz

Bir duo tilamoq insoniy burchim.

1 boshlovchi:

Assalomu-alaykum mehri daryo, qalbi quyosh, jonkuyar, fidoyi muallimlar, aziz ustozlar!!

2 boshlovchi

Assalomu-alaykum ezgulik bunyodkori bo'lmish siz muhtaram ustozlaru, aziz mehmonlar!!

1 boshlovchi:

Siz ustozlarga atalgan bugungi kechamizni Davlatimiz madhiyasi bilan boshlashga ijozat bersangiz. Marhamat.

2 boshlovchi

Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shut ob,  
Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.

Ne odam bo'lardim qo'limda kitob

Biror harf tanimay tursaydim loqayd.

1 boshlovchi

Dunyoda kasblar ko'p, har birining hayotda o'z o'rni, o'z ahamiyati bor. Lekin ular orasida shunday ulug' kasb borki, boshqa barcha kasblar uning negizida shakllanadi va taraqqiy etadi. Bu olijanob kasb – muallimlikdir.

2 boshlovchi

To'g'ri aytasiz, o'qituvchilikni ko'p qirrali, sermazmun, murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni ilm- fan sirlaridan boxabar etish kabi muhim vazifalar yotadi.

O'quvchi: (Gavhar opaga)

Qo'limga qalamni ushlatdi ilk bor,

Shu ondan qalbimda boshlandi bahor.

Undanda buyukroq, ulug'roq kim bor?

Ustozim, ustozim sizga ming ta'zim!

O'quvchi: (Direktor o`ribosariga)

Barcha ilmlarning kaliti sizda,

Sahovot nuri bor bu qalbingizda.

Otasiz, onasiz har o'g'il –qizga

Ustozim, ustozim sizga ming ta'zim!

O'quvchi: (Direktorga)

O'qishni o'rgatib, ko'zni ochdingiz,

Ilm sirlarini qalbgga sochdingiz.

Otaday ulug'siz, kelajak-sizsiz

Ustozim, ustozim sizga ming ta'zim!

O'quvchi: (Maxfirat opaga)

Dard bo'lsa dardlashgan doim biz bilan,

Sirdoshdek sirlashgan hatto biz bilan.

Qalbimiz, mehrimiz, ustoz, siz bilan

Ustozim, ustozim sizga ming ta'zim

1 boshlovchi

Olamning gultojisi inson bo'lsa, ular orasida Olloh nazari tushgani, suyuqlisi ustoz-muallimlardir.

2 boshlovchi

Bizlarning har bir savolimizga chuqur e'tibor va bosiqlik bilan javob beruvchi, elning nazaridagi birinchi muallim

Ikkala boshlovchilar:

Sizlarga bugun qo'limizni ko'ksimizga qo'yib tashakkur aytamiz.

Raqs.

1 boshlovchi

O'qituvchilik azal-azaldan e'tiborli kasb hisoblanadi. Mamlakatimizda

Respublikamiz Prezidentining Farmoni bilan 1997 yildan boshlab 1 oktabr-

O'qituvchilar va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanmoqda.

2 boshlovchi

Dunyoning hech bir mamlakatida o'qituvchi va murabbiylarga nisbatan bu qadar e'tibor qaratilmagan. Shu fursatdan foydalanib, 318-sonli "Ixtisoslashgan maktab-bog'cha"miz murabbiy va o'qituvchilarini barchamiz nomidan tabriklashga ijozat bersangiz.

(Ustozlarga gullar taqdim etiladi)

1 boshlovchi

Quyoshni qaritar zahmatlaringiz,

Ellarda dostondir mehnatlaringiz.

Yog'ilgay siz uchun rahmatlarimiz

Bizning muallimlarimiz (barcha)

O'quvchi:

Shogirgim obroyim, yuzim degan zot

Ishonchim, umidim, ko'zim degan zot.

Bolajonim- o'g'lim, qizim degan zot



Bu sizsiz ustozlar, hokisorlarim!

O'quvchi:

Sabr ham, toqat ham, bardosh ham sizsiz,

Gog quvonch, goh alam, ko'z yosh ham sizsiz.

Har ikki olamda quyosh ham sizsiz.

Siz mening g'ururim, iftixorlarim.

O'quvchi:

Tortilib, o'ylanib yashabsiz bilsam,

Bir umr kuymanib yashabsiz bilsam,

Ertam deb o'ylanib yashabsiz bilsam

Ey mening fidoyi alp chinorlarim.

O'quvchi:

G'unchalar ochilib bo'lishganda rom,

Barchasin ardoqlab etdim ehtirom,

Mehrimning sharobin tutdim to'la jom

Faxrga sharafdir ustoz degan nom.

2 boshlovchi

O'qituvchilar haqida ruz va o'zbek shoirlari bayt bitganlar, ular haqida shunday hikmatli so'zlar aytganlar.

O'quvchi:

Birovni o'rgatishing uchun o'zing o'rganishing lozim bo'lganidan ham ko'ra ko'proq aql kerak

O'quvchi:

Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga etkazadi.

O'quvchi:

Maktabning maqsadi tarbiya va faqat tarbiyadir.

O'quvchi:

Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi.

O'quvchi:

Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri o'quvchiga hurmatda.

O'quvchi:

Fikr! Buyuk narsa! Insonning ulug'vorligi ham erkin fikrdadir.

O'quvchi:

Ildan yaxshiroq hazina bo'lmas,

Qo'lingdan kelgancha tera olsang bas!

O'quvchi:

O'quv qunt beradi, bilim sharaf-shon.

Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson.

O'quvchi:

To'g'ri, shu bois yurtimizning e'zozli tarbiyachilari bo'lmish ustoz murabbiylar hamisha el-yurt ardog'ida.

1 boshlovchi

Ustozlarga bo'lgan yuksak ehtirom ila navbatni raqsga beramiz.

2 boshlovchi

Ey, inson idrokini charxlovchi zot

Ey, ma'rifat bog'ini gullatgan zako

Siz bilan munavvar bu shirin hayot

Siz bilan oboddir bu ko'hna dargoh.

O'qituvchim anbarim mening

Hayot yo'llarida sarvarim mening.

1 boshlovchi

Endi so'z navbati majmuamiz ustuni, ilmimiz poydevoriga mustahkam shart-sharoitlar yaratib berayotgan otaxonimiz, jonkuyarimiz, majmuamiz direktori Xamit Axmatovich Xodjaxonovga.

2 boshlovchi

Dedilar: dunyoda asli kim aziz

Aytdilar: ustozdir, ustoz begumon.

Ustoz qadriga yetolgan inson.

2 boshlovchi Shuning bilan ustozlarva murabbiylar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan bayram dasturimiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr. Omon bo'linglar

## XULOSALAR

Maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni zamonaviylashtirish va takomillashtirish maqsadida olib borgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Innovatsion texnologiyalarini qo'llab darsdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida shaxs ma'naviyatini shakllantirish, ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bular orqaligina erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak mutaxassislarni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

Shaxs ma'naviyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo'lib kelgan. Chunki shaxs ma'naviyati jamiyat ma'naviyatini tashkil etadi. Ular zamon va makon nuqtai nazardan kelib chiqib turlicha fikr bildirgan.

Hozirgi kunda maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, o'quvchilar darsdan tashqari olib boriladigan ishlar pedagogic muammo sifatida imkon darajasida tashkil etilgan, ammo davr talabi ularni yanada takomillashtirishga undamoqda.

Maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmundai o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada takomillishtirish o'quvchilar ota-onalari uchun mo'ljallangan tadbirlarni mazmunan boyitish lozim ekanligi aniqlandi.

O'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qiziqishini oshirish Maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliyotdagi ahvoli muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerakligini ko'rsatadi..

Maktabda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariyalarini tuzish, milliy–ma'naviy qadriyatlarimiz haqida batafsil ma'lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishga qulay holga keltirib, ya'ni axborot ko'rinishiga keltirib tizimlarga (qomusiy va hadis ilmi olimlari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rasm–rusumlar va urf–odatlar, an'analar va h.k.) ajratish ijobiy pedagogik samara

beradi.

Maktablarda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni takomillashtirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan qurishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy musiqiy tadbirlar orqali bo'lajak barkamol avlodlarimizni badiiy-estetik tarbiyalash ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilari maktagacha, maktabdan tashqari muassasa rahbarlari, tarbiyachilarining muqaddas burchlaridan biridir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- Karimov I.A. Istiqqlol va ma'naviyat. –Toshkent: O'zbekiston, 1995.
- Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. -384 b.
- Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999. – 8-30-b.
- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 48 b.
5. A. Karimov “Buyuk kelajagimiz huquqiy kafolatlari” “Toshkent Sharq” nashriyoti 1993 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'o'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –20-29 b.
- 7.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.- 31-61 b.
- Musiqqa ta'lim va ma'naviyat “Toshkent” 1998 yil
- Ta'lim taraqqiyoti “Sharq” nashriyoti matbaa konserti 1999 yil. Sharipova G.M. “Musiqqa tarbiyasi metodikasi” fanidan ma'ruzalar matni. “Toshkent” 1997 yil.
- “Ta'lim taraqqiyoti” O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi 6-maxsus soni. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. “Sharq” nashriyoti 1999 yil.
- Fayziyeva. O. O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirishi yo'llari. Toshkent 1992 yil.
- Maktabda musiqqa metodikasidan ma'ruzalar matni. 1990 yil.
- Nurmatov. N. Norxo'jayev H., Mirrahimov A. “Musiqqa” 3-sinf uchun darslik G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
- Dmitriyeva. N.G. Chersivanenko. O. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkola. Moskva. 1990 goda.

M. Ochilov M. “Muallim qalb me’mori” Saylanma. Toshkent. O’qituvchi 2000 yil.  
Raxmatjon Tursunov. “Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti” “Ma’rifat-Madadkor”  
nashriyoti Toshkent 2002yil.

18.“Musiqqa ijodiyoti masalalari” Uzbekiston bastakorlar uyushmasi “Katortol-  
Kamolot”nashriyoti. Toshkent 1997 yil.

Ergash Ochilov. “Shoda-shoda marvarid” Uzbek xalk qo’shiqlari. “Shark”  
nashriyoti. Toshkent 2006 yil.

Urozali Toshmatov “Folklor qo’shiqlari” A. Qodiriy nomli xalk me’rosi nashriyoti  
Toshkent 2009 yil

21.“Uzbekiston musia san’ati ustalari” Axmad Odilov. Toshkent-2001 yil.

A. Mansurov, D. Karimova. “ 5-sinf musiqa darsligi”. Toshkent 2004 yil.

Ibroximov O. Sadirov. , J. “ 7-sinf musiqa darsligi” Toshkent 2001 yil.

Quvondiqov Q. Maktabdan tashqari bolalar muassasalarda tarbiyaviy ishlar. T.,  
O’qituvchi, 1992, 11-14- betlar.

Maktabdan tashqari muassasalar to’g’risidagi Nizom. // Vazirlar Mahkamasining  
1995 yil 18 fevraldigi 59- son qaroriga 2-ilovayu T.: Ma’rifat, 1995, 21-mart. -3-  
bet.

26.. Интернет маълумотлари

-WWW.Ziyonet.

-Pedagog.uz.